

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

Qo'lyozma

huquqida

UDK 78:371,3

MUMINOV AZIZJON

**O'QUVCHILARNING MUSIQIY IJROCHILIK QOBILYATLARINI
SHAKILLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI
(FORTEPIANO CHOLG'USI MISOLIDA).**

5A111101-Musiqiy ta'lim mutaxassisligi

**MAGISTR AKADEMIK DARAJASINI OLIH UCHUN YOZILGAN
DISSERTATSIYA**

**Ish ko'rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.**

**“Musiqqa o'qitish metodikasi va
xalq cholg'u asboblari” kafedrasi
mudiri dot. E.K.Jalilov_____**

Ilmiy rahbar:

dots. A.Ergashev_____

SAMARQAND -2015

Mavzu: O'quvchilarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini shakillantirishning pedagogik-psixologik omillari (fortepiano cholg'usi misolida).

Reja:

Kirish.

I BOB: Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart- sharoitlari.

- 1.1. Musiqiy qobiliyatlarturlari va ularni nazariy tahlili.
- 1.2. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat maqsad va vazifalari.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar.

II BOB: Musiqiy qobiliyatlar va ularni shakillantirishning pedagogik omillari.

- 2.1. Cholg'u asbobi bilan shug'ullanish jarayonida musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni shakillantirish yo'llari.
- 2.2. Cholg'u mashg'ulotlarida o'quvchi va pedagog faoliyatining mazmuni va turlari.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.

III BOB: Musiqa asari ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni ijrochilik qobiliyatlarini shakillantirish texnologiyasi.

- 3.1. Musiqa asari ustida ishlashning amaliy tomonlari.
- 3.2. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish va o'quvchilarni ijodiy ijrochilik faoliyatiga tayyorlash amaliyotini samaradorligi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday jamiyatning istiqbolli sivilizatsiyasi uning ta'lim jarayoni qay darajada yo'lga qo'yilganligi, uning milliy va umuminsoniy qadryatlar, jahon ilm-fani bilan uyg'unlik jihatlariga bog'liq bo'ladi. Zotan, ta'limning xalqchilligi jamiyat kelajak istiqboli uchun mas'uliyatli avlodni tarbiyalashga yo'naltirilganligi davlat va millatning kelajagini ta'minlaydigan, jahonda nufuzini belgilaydigan eng muhim omil hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan o'zining tarqiyot yo'lini ilm-fan, ta'lim va tarbiyani milliy negizda, dunyo ilm-faniga tayangan holda yangittan shakillantirishga kirishildi. Jamiyat hayotining barcha sohalaridagi mavjud holat avvalo, milliy g'oya va mafkuraning asosiy andozalariga tayangan holda amalga oshirila boshlangan tub yangilanishlarni samarasi, milliy qadryatlar va ma'rifatning tiklanishi, xalq pedagogikasiga oidan'analarning zamonaviy ko'rinishlarda yangicha mazmun va mohiyat kasb rtgan holda zamon talablari bilan uyg'unlashgan rivojlanishning bosh maqsadiga aylandi.

Respublikamizda hozirda amaldagi ta'lim- tarbiyaning konstitutsiyaviy va huquqiy asoslari (O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi") Prezidentimiz Islom Karimovning teran siyosiy- ma'rifiy asarlari, nutqlari, ta'limni milliy asoslarda isloh qilishga qaratilgan farmoyishlari, qarorlari negizida zamon talablariga to'liq javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashga ustuvor e'tibor qaratildi.

Jamiyat taraqqiyotini jahon andozalari darajasiga olib chiqish, uni milliy asoslarda takomillashtirish ishlari bosqichma-bosqich hal etilayotgan bugungi kunda hali o'zining to'liq yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas.

Keyingi yillarda umumta'lim va musiqa maktablarida, maktabdan tashqari muassasalar (bolalar ijodiyot markazlari, san'at studiyalari, maktab-

internatlar) musiqiy-estetik tarbiyani zamonaviy talablar asosida yo'lga qo'yish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Musiqa, tasviriy san'at, amaliy san'at bo'yicha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar chiqarildi, o'quv binolari qurildi, moddiy ta'minoti yaxshilandi, ta'lim- tarbiya jarayonini sifat-samaradorligi bo'yicha tajribalar ommalashtirildi. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarda bolalar ijodiyotini rivojlantirish bo'yicha badiiy to'garaklarning faoliyatiga e'tibor kuchaydi.

So'ngi yillarda bolalar musiqa va san'at maktablariga berilayotgan e'tibor natijasida, umumta'lim maktablari, bolalar ijodiyoti markazlari, musiqa asboblarini chalishni yakka tartibda o'rgatish studiyalari, to'garaklar, fortepiano sinflari keng rivojlanmoqda. Yakka tartibdagi mashg'ulotlar bolalarni musiqaga, xususan musiqa cholg'u asboblarini mustaqil o'rganishlariga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Musiqa asboblarida chalish ijodiy faoliyatga, uning murakkab va o'ziga xos ta'limiy va tarbiyaviy ishlarini aniq reja, dastur asosida tizimli tashkil etish bilan bog'liqligi sababli ham bu faoliyatni yakka tartibda bo'lishi uning muvoffaqiyatini ta'minlovchi ustuvor omil hisoblanadi. Ta'kidlab o'tgan ishlarni e'tirof etgan holda shu narsani alohida aytish joizki, yuqorida qayd etilgan ta'lim muassasalarida milliy cholg'ular bilan birga jahon xalqlari musiqa madaniyatiga chuqur kirib borgan, keng imkoniyatga ega bo'lgan fortepiano cholg'usini o'rganishga yoshlarni qiziqishlari tobora ortib borayotganligi fortepiano cholg'usi bo'yicha yakka tartibdagi mashg'ulotlarni tashkiliy-uslubiy asoslarini, ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni aniq maqsadga yo'naltirilgan yo'nalishlari bo'yicha pedagogik faoliyat va ushbu faoliyatda o'quvchilarni musiqiy- ijrochilik qobiliyatlarini shakillantirishning pedagogik-psixologik omillarini tadqiq etish zaruratini vujudga keltirdi. Ushbu muammoning pedagogika nazaryasi va tarixi yo'nalishida ilmiy tadqiq qilinmaganligi biz tomonimizdan tanlangan dissertatsiya mavzusini " O'quvchilarning musiqiy- ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari" deb

nomlanishiga sabab bo'ldi. Muammoning pedagogika fanida maxsus tadqiq etilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilovchi bosh omil hisoblanadi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Falsafiy, pedagogik, psixologik, san'atshunoslik, musiqa tarixi, zamonaviy cholg'uchilikka oid adabiyotlar tahlili, shuningdek, musiqiy cholg'u ijrochiligi amaliyoti shuni ko'rsatadiki, cholg'u ijrochiligi musiqa san'atining paydo bo'lishi, rivojlanishi, mukammallashuvi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni yaratilishi, tuzilishi, qo'llanilishi, amaliy ijrochilik malakalari qadim- qadimdan olimlar, musiqachilar, adabiyotchilar, shoirlar, faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Musiqaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatini chuqur anglagan olimlar, faylasuflar, turli fan sohalari bilan shug'ullangan mutaffakirlar o'z asarlarida, ilmiy tadqiqotlarida musiqa san'ati, xususan, cholg'u sozlari va ularning tuzulishi, shakli, ijro xususiyatlariga alohida o'rin ajratganlar. Ularning ko'plari hatto musiqa bilan amaliy tarzda shug'ullanishgan, musiqa sozlaridaijro etishgan, kuy- qo'shiqlar yaratishgan. Abu Nasr Forobiy o'zining ilmiy merosida musiqaga, ayniqsa qadimgi sharq xalqlari musiqa cholg'ulariga alohida e'tibor qaratgan. Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Abu Abdulloh Ro'dakiy, Mir Alisher Navoiy, Az-Zamaxshariy, Mavlono Kavkabi, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy kabi allomalar ijodida musiqa, uning inson tarbiyasidagi o'rni, musiqa janrlari, cholg'u sozlari haqidagi bilimlar katta o'rin egallaydi.

Keyingi davrlarda yashab o'tgan yurtdoshlarimiz Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Mahmudxo'ja Behbudiy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabilar ham ta'lim-tarbiya bilan birga zamonaviy pedagogika sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan izlanish va ijodlarida musiqa san'ati, uning shaxs kamolotidagi ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlar bildirshlgan. Shu o'rinda Abdurauf Fitratning " O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi"³³ asariga qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz. Abdurauf Fitratning ushbu asarida

o'zbek xalq musiqasi, uning eng murakkab va mumtoz yo'nalishi hisoblanmish maqom musiqasi, uning shakllanishiga xos muhim xususiyatlari, turkumlari, nomlanishlari o'tmishda yaratilgan ilmiy manbalarga tayangan holda talqin qilingan. Bu asarning eng qimmatli tomonlaridan biri unda milliy cholg'ular tasnifi va tavsifi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbek milliy cholg'ulari, ularni umummusiqa madaniyatimizdagi o'rni, ijro imkoniyatlari, cholg'u sinflarida olib boriladigan ta'limiy o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkiliy-uslubiy asoslari, ijrochilik texnikasi, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning o'ziga xos tomonlari taniqli pedagog, san'atshunos olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan va yoritib berilgan. Ular jumlasiga A. Petrosyans, B. Zeydman, T. G'ofurbekov, O. Matyoqubov, A. Odilov, Q. Usmonov, H. Nurmatov kabilarni kiritish mumkin.

Milliy cholg'ular bilan bir qatorda xalqimiz madaniy hayotiga yaqin o'tmishda kirib kelgan va hozirda mustahkam o'rin olgan fortepiano, skripka, violonchel, bayan, akkordion kabi cholg'ularda ijrochilik malakalari rus va xorijlik pedagog-olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

Taniqli rus pianisti va pedagog-olimi Ye. Efrusi "Развитие пианиста"³⁶ asarida (Москва 1935 г.) yosh bolalarga fortepiano chalishni o'rgatish, bu faoliyatda ritmika, musiqa nazariyasi, musiqa eshitish, mashg'ulotlarda o'quvchilarni musiqani eshitib chalish va fortepianoga ko'chirish uslublari yoritib berilgan. Mashhur pedagog A.P. Shapovning "Первоначальное обучение игре на фортепиано" (М.: Искусство, 1968 г.)²⁷ asarida o'quvchilar saroyida bolalarga tajriba yo'sinida fortepiano chalishni o'rgatish jarayonida bolalarning tovushni tasavvur qilishi bilan uni pianinotchilarga xos harakatlar orqali yoddan ijro etishga o'rgatish bu jarayonni muvoffaqiyatli ta'minlovchi samarali usul ekanligi asoslanadi.

G. Neygauz "Об искусстве фортепианной игры" nomli asarida²⁸ (М.:Искусство, 1959 г.) fortepiano texnikasi elementlari ustida ishlash usullari,

shu o'rinda barmoqlarda chalib, pedaldan foydalanishga o'rgatish jarayonida ijrochilik malakalarini hosil qilish uslublari yoritilgan.

Pedagog-olim N. Xalilovning "Активизация процесса музыкально-эстетического воспитания учащейся молодежи средствами игры на баяне"³⁰ nomli tadqiqoti mazmunida bayan cholg'usi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchi- yoshlarni estetik madaniyatini shakillantirish jarayonini tashkiliy-pedagogik, ilmiy- uslubiy jihatlari yoritib berilgan.

D. Rajabovanning "Fortepiano mashg'ulitlari"³⁴ nomli monografiyasi o'zbek musiqachi-pedagoglari tomonidan yaratilgan ilk fortepiano ta'limi metodikasiga bag'ishlangan ilmiy asar sifatida respublikamiz musiqa ta'limida yangicha ilmiy izlanish sifatida e'tirofqa loyiqdir. Mazkur asar nomzodlik disertatsiyasi mahsuli sifatida yaratilgan bo'lib, uning yana bir muhim jihati unda fortepiano cholg'usini o'rganuvchilar bilan olib boriladigan faoliyat mazmuni, turlari, tovush, metroritm, polefonik asarlar ustida ishlash, ushbu jarayonda o'quvchilar va talabalarga qo'yiladigan talablar o'z ifodasini topgan.

Musiqa ta'limi va tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalari o'sib kelayotgan yoshlarda musiqa san'atiga qiziqish va muhabbatni, shu orqali milliy qadryatlarga, Ona vatanni sevish, unga munosib farzand bo'lib yetishishlari uchun zarur ma'naviy, axloqiy va estetik barkamollikni shakillantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirish uchun o'quvchi-yoshlarni musiqaga qiziqishini orttirish asnosida ulardagi layoqat, musiqiy idrok, musiqiy eshitish, musiqani hissiy emotsional qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish kerak. Aks holda barcha sayi- harakatlar natijasiz qoladi. Musiqiy eshitish, diqqat, xotira, idrok, tasavvur, fantaziya kabilar o'z o'rnida psixologik xususiyatlar bo'lib, musiqachi-pedagog va o'quvchi-musiqachi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda ko'plab olimlar tadqiqiy izlanishlar olib borishgan va musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi haqida o'z fikr va xulosalarini bayon etishgan. Masalan, S.A. Rubenshteyn "Проблемы общей психологии"³² nomli asarida (-Moskva.:

Prosvesheniye, 1973 g) insonni kamol toptirish- uning qobilyatlarini rivojlantirishdir, degan metodologik qoidani asoslashga harakat qiladi.

Juda ko'plab yirik musiqachi-pedagoglar, ijrochilar, metodistlar (P. Borenboym, T. Berkman, G. Neygauz, V. Shapov, B. Teplov) musiqa tarbiyasi sohasidagi ta'lim bilan kamolotning o'zaro bog'liqligi masalasini chuqur tahlil qiladilar va ta'lim jarayonini muvaffaqiyat ko'p jihatdan o'quvchining imkoniyati, qobilyatlarini, o'ziga xos sifatlarini hisobga olib, ularni rivojlantira borishga bog'liqligini ta'kidlashadi.

O'zbek pedagog-olimlaridan R. Qodirov tahriri ostida chop etilgan "Musiqqa psixologiyasi" ³⁵ nomli o'quv qo'llanmada musiqa bilan shug'ullanish jarayonida umumiy va maxsus qobilyatlarning muayyan majmui talab etilish ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Shuningdek, D. Rajabovanning " Fortepiano mashg'ulotlari"³⁴ (fortepiano ta'limi metodikasi), D. Soipovanning "Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish"¹⁹ (fan va texnologiyalar nashriyoti), "Musiqqa o'qitish nazariyasi va metodikasi" nomli qo'llanma va disertatsion ishlarida musiqiy qobilyatlar turlari, umumiy va maxsus qobilyatlar, musiqa mashg'ulotlari jarayonida ularni rivojlantirishni zaruriyatining ayrim jihatlariga munosabat bildirib o'tilgan.

Shulardan kelib chiqqan holda biz tomonimizdan bajariladigan magistrlik dissertatsiyasi mavzusi " O'quvchilarning musiqiy ijrochilik qobilyatlarini shakillantirishning pedagogik-psixologik omillari" (fortepiano cholg'usi misolida) deb nomlandi. Biz o'rganib chiqqa ilmiy ishlar, xususan, respublikamizda bajarilgan ilmiy tadqiqotlarda ushbu mavzu shu nomlanishda alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmaganligi dissertatsiya mavzusini shu nom bilan belgilashimizga sabab bo'ldi.

Disertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Disertatsion tadqiqot Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" , "Umumiy o'rta ta'limni

rivojlantirishning Davlat dasturi”, O’zPFITI ning XT-F2.003 “Umumiy o’rta ta’lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari va strategiyasini belgilash” ilmiy laboratoriyasining tadqiqot ishlari dasturi, shuningdek, A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ish rejasi doirasida, “Musika o’qitish metodikasi va xalq cholg’u asboblari” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari bosh mavzusidan kelib chiqqan holda rejalashtirildi.

Tadqiqot maqsadi. Cholg’u mashg’ulotlari (fortepiano sinfi) jarayonida o’quvchilarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillarini asoslash va ushbu faoliyatning o’ziga xos metodik tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari.

1.Musika ijrochiligida qobiliyatlar majmuining ko’rinishi, turlari, namoyon bo’lishi, ularni rivojlanishiga oid ilmiy,o’quv-uslubiy manbalarni o’rganish, tahlil qilish, umumlashtirish.

2.Cholg’u mashg’ulotlari jarayonida o’quvchilarni musiqiy-ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash.

3.Cholg’u mashg’ulotlari jarayonida o’quvchilarning ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqish.

4.Cholg’u mashg’ulotlari jarayonida o’quvchilarni musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini shakllanganlik darajasini aniqlovchi me’zonlarni asoslash.

5.Cholg’u mashg’ulotlari jarayonida o’quvchilarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirish samaradorligini oshirishga oid ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: Cholg’u ijrochiligi mashg’ulotlarida o’quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni musiqiy ijrochilik qobilyatlarini shakillantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat mazmuni, ish shakl, usullari.

Tadqiqot metodlari: Mavzuga doir ilmiy, falsafiy, tarixiy, musiqashunoslik, san'atshunoslik, pedagogik va psixologik manbalarni o'rganish, cholg'u ijrochiligi (fortepiano sinflari) bo'yicha mashg'ulotlarni kuzatish, musiqachi-pedagoglar, musiqa rahbarlari, olimlar bilan suhbatlar o'tkazish, ilg'or ish tajribalarini o'rganish, anketa- so'rov, intervyu, pedagogik tajriba, matematik statistika.

Himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlar:

1. Musiqiy ijrochilik qobilyatlari va mashg'ulotlar jarayonida ularni shakillantirish imkoniyatlari.

2. Musiqiy ijrochilik qobilyatlarini shakillantirish, rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.

3. Cholg'u mashg'ulotlarida (forteplano cholg'usida) o'quvchilarni musiqiy ijrochilik qobilyatlarini shakillantirishning samarali ish usul, shakl, vositalari.

4. O'quvchilarning musiqiy ijrochilik qobilyatlarini rivojlanganlik darajasini aniqlovchi me'zonlar.

5. Cholg'u ijrochiligi bo'yicha amaliy faoliyatga oid bilim, tajriba-kuzatuv, xulosalar asosida o'quvchilarning ijrochilik qobilyatlarini shakillantirish jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar.

Ishning ilmiy yangiligi:

1. Cholg'u asboblari mashg'ulotlarida (forteplano cholg'usi) o'quvchilar bilan ishlash tajribalari, metodlari o'rganildi, tahlil qilindi, umumlashtirildi.

2. O'quv mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarni musiqiy qobilyatlarini shakillantirishning psixologik va pedagogik omillari aniqlandi.

3. O'quvchilarning musiqiy ijrochilik qobilyatlarini rivojlantirish imkonini beruvchi metodika ishlab chiqildi.

4. Musiqiy qobiliyatlar va ularni shakllantirishning mazmuni, mohiyati, psixologik, pedagogik omillarini aniqlash, amaliyotga tadbiiq etish yuzasidan amaliy tajribalar o'tkazildi.

5. Cholg'u asbobi (fortepiano bo'yicha) pedagoglar, musiqa rahbarlari uchun tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

-Cholg'u asboblari (fortepiano) mashg'ulotlarida o'quvchilarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirishning samaradorligini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlar va imkoniyatlar aniqlansa va asoslansa;

-O'quvchilarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning samarali ish usul, shakl, vositalari aniqlansa va amaliyotga tadbiiq etilsa;

-Cholg'u mashg'ulotlarida o'quvchilarni musiqa san'atiga, tanlagan cholg'u asbobini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini muntazam oshirib borish, mashg'ulotlarda o'quvchilar iqtidori, imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish va o'quv jarayonini pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga erishilsa, shuningdek, musiqa o'qituvchilari, musiqa rahbarlari cholg'u mashg'ulotlarida o'quvchilarni ijrochilik qobiliyatlarini samarali shakllantirish imkonini beruvchi o'quv-uslubiy manbalar bilan ta'minlansa bu jarayonda o'quvchilarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirish, muntazam rivojlantirib borishga erishiladi.

Tadqiqotning metodologik asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, umumiy o'rta ta'lim hamda musiqa maktablari bo'yicha cholg'u asboblari mashg'ulotlarini o'qitishga oid dasturlar, davlat ta'lim standartlari, musiqa o'qitish nazaryasi va metodikasi, pedagogika, psixologiyaga oid ilmiy, uslubiy manbalar, O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishga oid Prezident Islom Karimov asarlari, ma'ruzalari, shuningdek, me'yoriy va dasturli hujjatlar xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati:

Musiqa ta'limida o'quvchilarni cholg'u asboblari mashg'ulotlari jarayonida musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirishga oid pedagogik faoliyat mazmuni hamda cholg'u asboblari mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga oid o'ziga xos pedagogik, psixologik yondashuvlar majmui ishlab chiqildi. O'quvchilarni musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini samarali yechimini ta'minlash imkonini beruvchi tavsiyalar yaratildi. Ulardan umumiy o'rta ta'lim maktablarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, bolalar musiqa va san'at maktablarida cholg'u (fortepiano)mashg'ulotlarini olib borishda foydalanish mumkin.

Natijalarni joriy qilinishi.Ishning tadqiqot obyekti sifatida Samarqand viloyati , Tayloq tumanidagi № 56-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Samarqand shahridagi №1-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi hamda Samarqand shahar 1-sonli pedagogika kollejida tajriba- sinov ishlari olib borildi.

Ishning asosiy mazmuni, ilmiy xulosa va tavsiyalar bir qator seminar, ilmiy anjumanlar, maqolalar to'plami, talabalar va magistrnlarning an'anaviy ilmiy-amaliy konferensiyalarda o'qilgan ma'ruzalarda o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi:Dissertatsiya kirish, 3 bob, 6 paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, hajmi _____ betdan tashkil topgan.

I BOB: Ta'lim jarayonida musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik- psixologik shart- sharoitlari.

1.1. Musiqiy qobiliyatlar turlari va ularni nazariy tahlili.

Mustaqil rivojlanish yo'lidan dadil odimlayotgan respublikamizda yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash va ularga ta'lim berish tizimi yaratilganligini dunyo e'tirof etmoqda. Oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining bu boradagi roli va mas'uliyati tobora ortib borayotganligi davlatimiz tomonidan ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tiborning yorqin dalilidir.

Barkamol avlodni shakillantirish vazifalari juda mas'uliyatli va serqirrali masalalarni qamrab oladi va bunda shaxsning aqliy, axloqiy, madaniy-ma'naviy, estetik, jismoniy va mehnatga layoqatli qilib tarbiyalash kabilar eng muhim omillar bo'lib sanaladi. Ushbu omillarni har birining bir shaxs kamolotida uyg'un mujassamlashuvi uning komil inson sifatida shakillanganligini bildiruvchi mezon hisoblanadi desak xato bo'lmaydi. Bu omillar o'z o'rnida bir-birini rivojlantirishga turtki beradi, bir-birini to'ldiradi va yuqori sifat kasb etishga ijobiy ta'sir etadi.

Har bir jamiyatning dunyo tamaddunidagi o'rne, mavqei, kuch- qudrati, salohiyati eng avvalo uning ma'naviy va madaniy omillariga bog'liq bo'ladiki, uning asosida o'sha jamiyatni harakatlantiruvchi mexanizmini asosi bo'lgan insonlar, ularning vatan ravnaqi yo'lidagi fidoiyliklari, mehnati, g'oyaviy shakillanganligi yotadi. Inson ma'naviyati, milliy ongi, mafkurasi uning hayotdagi o'rne va bunyodkorlik faoliyatining yo'naltiruvchi vositasi sifatida

muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham mustaqillikning dastlabki davridan mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan yangilash, uni milliy asoslarda yangitdan shakillantirishga ustivor vazifa, mamlakatning keyingi istiqbolini belgilovchi vazifa sifatida e'tibor qaratildi va ta'lim-tarbiya mazmunida o'sib kelayotgan yosh avlodni birinchi navbatda ruhiy, ma'naviy kamolotiga diqqat e'tibor kuchaytirildi. Bu esa mohiyati va mazmuniga ko'ra estetik tarbiyaga, uning tarkibida eng ta'sirchan va ommaviylik kasb etuvchi musiqa ta'limi va tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirishni taqazo etadiki, bu haqda prezidentimiz I.A.Karimovning quydagi so'zlarini keltirish o'rinli bo'ladi: **“Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqa beqiyos o'rin tutib kelgan.**

...eng muhimi, bugingi kunda musiqa san'ati, navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda”¹.

Jamiyat, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tizimshaxsning kamol topishini belgilar ekan, musiqa san'ati ham shaxs barkamolligining tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois ham mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim, musiqa va san'at maktablari, maktabdan tashqari muassasalarda musiqiy-estetik tarbiyani sifati, mazmunini yaxshilash yo'lida anchagina ishlar amalga oshirildi.

Musiqa san'atining yosh avlodni axloqiy, ma'naviy va estetik kamolotiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishini nafaqat ta'lim jarayoni to'g'ri, tizimli yo'lga qo'yilishi, moddiy texnik bazasini mustaxkamligiga, (bular birinchi omillar sanaladi) shu bilan birga o'quvchi- yoshlarni bilish faoliyatini, ularni musiqiy idroki va qobiliyatlarini shakillantirish, ro'yobga chiqarish va rivojlantirishni mujassamlab olib boriladigan mashg'ulotlarga bog'liqdir.

Musiqa ta'limi va tarbiyasi sohasida ro'y berayotgan o'zgarishlardan biri umumta'lim maktablari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida musiqa san'atiga oid to'garaklar, studiyalar, pullik mashg'ulotlar olib boruvchi kurslar

keng tarqalmoqda. Ularda asosan musiqa san'atining cholg'u asboblarini o'rganish, raqs, ritmik ginastika (bu ham san'at, ham sport turi hisoblanadi) turlari bo'yicha qiziquvchilar bilan mashg'ulotlar yakka va guruh holida olib boriladi. Cholg'u asboblari, shu jumladan fortepiano cholg'usini o'rganishga ishtiyoqmandlar ko'payib borayotganligi bois ularda mashg'ulotlarni yakka tartibda tashkil etilishi o'quvchi-yoshlarni musiqa bilan shug'ullanish, o'z qobiliyat va iqtidorlarini namoyon qilishlarida eng qulay va samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Mashg'ulotlarni bunday tarzda yo'lga qo'yilishi o'qituvchining o'quvchini yaxshi va yaqindan o'rganib, bilib borishi, uning imkoniyatlarini to'g'ri baholagan holda ish tutishi uchun qulay imkoniyat yaratadi. Musiqa asboblarida chalishni o'rganish o'z tabiatiga ko'ra ijodiy faoliyat bo'lib, o'rganuvchilardan muayyan ko'nikma va malakalarni emas, balki ijodiy faollikni, tashabbuskorlikni, qunt, sabr-toqatni, o'qituvchidan esa shogirdini qiziqish va qobilyatlarini to'g'ri baholay olishi, ularni shakillantira borishi va rivojlantirishni talab qiladi. Chunki, har qanday qobiliyat, layoqat, iqtidor ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladi, rivojlanadi. Faoliyat bo'lmasa, qobilyat ham, iqtidor ham rivojlanmay qolib ketishi ilmiy tadqiqotlarda asoslab berilgan.

Cholg'u asboblarini o'rganishga yo'naltirilgan ta'limda eng asosiy maqsad o'quvchilarda ijodkorlik qobilyatini, ijrochilik qobilyatini bir qator yo'nalishlarini shakillantirishdan iborat bo'lmog'i lozim. Bu o'rinda- musiqani tinglash va undan ta'sirlana olish, ya'ni, badiiy emotsional zavqlanish, g'oyaviy- badiiy mazmuni, harakterini, obrazlilikni, muallif kechinmalarini his etgan holda uning ta'sirida ijro etish, musiqiy obraz, voqelikni ifoda etuvchi vositalar ahamiyatini anglashga o'rgatish zarur.

Psixologiya fanidan ma'lumki, har qanday qobiliyat shu jumladan musiqiy qobilyat ham tug'ma bo'lmaydi. Uni tegishli faoliyat jarayonida tarbiyalab, rivojlantirish va takomillashtirish mumkin. Musiqa asboblari mashg'ulotlari ana shunday faoliyat hisoblanadi.

Respublikamizda xalq cholg'u asboblarini o'rganish bo'yicha ta'limning tashkiliy-uslubiy o'ziga xosligi, ularda olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy ishlar, cholg'u ijrochiligi ko'nikma va malakalarini shakillantirish, rivojlantirish uslublari ancha keng o'rganilgan. Bu borada ko'plab darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va maxsus adabiyotlar (to'plamlar, tavsiyanomalar) yaratilgan. Fortepiano cholg'usi bo'yicha esa asosan yevropa mamlakatlarida juda ko'plab ilmiy manbaalar chiqarilgan, ilmiy tadqiqotlar qilingan. Fortepiano chalishni o'rganish o'ziga xos metodikaga tayanadi va shu bilan u ilmiy-pedagogik fan hisoblanadi. Cholg'u o'rganishning o'ziga xos metodikasi, uning ilmiy va istiqbolio'xshash fanlarning yutuqlariga tayangan holda ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni ijodiy ravishda, muvafaqqiyatli hal etishga bog'liq bo'ladi.

Mana shulardan kelib chiqqan holda fortepiano cholg'usini o'rganish sinflari, kurslarida mashg'ulot olib boruvchi pedagoglar (rahbarlar) har bir o'quvchini, eng avvalo, ularni ijrochilik qobiliyatlarini namoyon etishlari, rivojlantirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishlari va ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik, psixologik, metodik vositalarini chuqur anglagan holda ish tutishlariga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinadiki har qanday musiqa o'qituvchisi birinchi galda pedagog, psixolog, metodist va musiqiy qobiliyatlarni shakillantirish metodikalaridan, bu boradagi ilmiy-nazariy bilim, tajribalardan yetarlicha tayyorgarlik va malakaga ega bo'lishi talab etiladi.

Jahon musiqa madaniyatida keng tarqalgan va eng universal, imkoniyati boy cholg'u fortepiano hisoblanadi. "Shuni yaxshi tushinib olish kerakki,-deb yozgan edi G.G.Neygauz,-musiqani va musiqa savodini o'rganish umummadaniy ish bo'lib, bunda fortepiano eng yaxshi, tengi yo'q vositadir. Tilni, jamiyat haqidagi fanni, matematika, tarix, tabiatshunoslik va hokazolarni o'rganish singari musiqani o'rganish ham madaniy kishi uchun majburiydir. Menga qolsa, o'rta maktabda fortepiano orqali majburiy musiqa ta'limini joriy qilar edim"(29.76-bet).

Musiqa asbobini o'rganish va turli murakkablikdagi, shakl, janr, mazmundagi asarlarni ijro etish doimo ijodiy faoliyatdir. Bu faoliyatni mazmuni, sifati va samarasi o'quvchilarni musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini muntazam o'stirib, rivojlantirib borish bilan amalga oshadi.

Psixolog olimlarning ilmiy-tadqiqotlarida inson bolasining biron bir qobiliyatini ro'yobga chiqishi va rivojlanish manbai hisoblanmish **layoqat** bilan tug'iladi. Layoqat bu- insonni biron bir narsa, hodisa, vazifani bajarishga bo'lgan imkoniyat darajasini belgilaydi va o'z holicha rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun qulay muhit kerak bo'ladi. Bola musiqaga layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin, uning musiqiy xususiyatlari (qiziqish, eslab qolish, qaytarish, ta'sirchanligi, musiqiy xotirasi va h.k) shakillanishi uchun qulay muhit, e'tibor va tarbiyaviy sharoit yaratilmasa, musiqaga bo'lgan layoqat rivojlanmay qolib ketadi. Bolani shaxs sifatida shakillanishida yetakchi omillardan biri muhitdir. Muhit o'z navbatida- tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti kabilarga bo'linadi. Insondagi musiqiy layoqatning rivojlanishi va shakillanishi uchu ijtimoiy va oila muhiti eng asosiy o'rin tutadi. Insoniy fikr, faoliyat, hatti-harakat, munosabatlar, odob-axloq, fe'l-atvor va shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiya ta'siri asosida shakillanadi.

Musiqiy qobiliyatlar- musiqiy ritmni his qilish, ladni his qilish, musiqiy eshitish (slux), musiqiy xotira, emotsional ta'sirchanlik bolalarda ijrochilikni rivojlantirish omili hisoblanadi.

Qobiliyatlarning yuqori rivojlangan darajasi-**talantdir**. Talant- insonni qaysidir murakkab faoliyatni muvaffaqiyatli, mustaqil va o'ziga xos ravishda amalga oshirish imkoniyatidir. Kishilar o'rtasida shunday mulohazalar ham mavjudki, go'yoki musiqiy qobiliyatli insonlarning avlodlarida ham shunday qobiliyat bo'ladi. Bu fikr bir tomonlama xarakterda bo'lib, musiqiy qobiliyatli odamlarning farzandlari ham layoqat bilan tug'ilishi mumkin, lekin u rivojlantirilmasa, layoqat qobiliyat darajasida shakillanmay qoladi.

Musiqiy qobilyat faqat musiqa amaliyoti, musiqa san'atiga xos bo'lgan musiqiy material, maxsus usullar orqaligina shakllantirilishi mumkin.

Psixolog B.M.Teplov o'zining "Musiqiy qobilyatlar psixologiyasi" (24) asarida musiqiy ijrochilik amaliyotidagi qobilyatlarni uch asosiy guruhga: a) musiqiy eshitish qobilyatiga tovushlarni lad funksialarini, ifodaviyligini emotsional his eta olish. b) ritmni his etish qobilyatiga- musiqiy kechinmalarni harakatlar bilan aks ettira olish. c) musiqiy xotira (musiqiy malumotlarni eslab qolish va qayta tiklash) ga bo'ladi.

Qobilyatlarni musiqiy ta'limdagi ahamiyatini ko'rib chiqar ekanmiz, shuni alohida ta'kidlash joizki, bizning fikrimizcha qobilyat musiqani ijro etishda juda katta rol o'ynasada, musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishda musiqiy qobilyatlar majmui- musiqiy xotira, musiqiy ritm hissi, musiqiy eshitish asosiy o'rin tutadi.

Musiqiy qobilyatlarning tur va shakillarini tahlil etar ekanmiz, musiqiy idrokni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Uning zamirida uch ko'rinishdagi qobilyatlar mujassamlashadi:

1.Musiqiy eshitish qobilyatining persiptiv va emotsional qismi ataluvchi lad hissi mavjud. Lad hissi tovushlarining (kuyni) vazifani emotsional his qilish, tovushlarning yuqoriga-pastga harakatini emotsional his qilish qobilyati. Lad hissi musiqa tovushlarining balandligini his etish bevosita kuyni tinglash, intonatsiyalarni anglash jarayaonida namoyon bo'ladi. U ritm hissi bilan bir qatorda musiqaga bo'lgan emotsional munosabatni tashkil qiladi.

2.Musiqiy ta'lim tarbiyaning reproduktiv yoki idrok etish qismi bo'lmish musiqiy eshitish qobilyati. Bu qobilyat musiqiy xotira va musiqiy tasavvurning asosiy negizidir. Musiqiy eshitish qobilyati musiqani to'la idrok etish qobilyati bo'lib, o'z navbatida quydagilarga bo'linadi:

Mutlaq eshitish qobilyati-musiqiy tovushlarning mutlaq balandligini aniqlash qobilyati.

Nisbiy qobilyat- kuy, intervallar, akkordlardagi tovushlar soni, ularning oraliq masofasi, balandligini sezish, aniqlash, ijro eish qobilyatidir.

Ichki eshitish qobilyati- musiqaning butun tarkibiy qismini xayolan tasavvur qilish qobilyatidir.

Musiqiy eshitish qobilyati musiqiy ijrochilik jarayonida rivojlanib boradi. Mutlaq eshitish bundan mustasno, negaki uni maxsus mashqlar orqali shakillantirib bo'lmaydi. Musiqiy eshitish qobilyatini rivojlantirish uchun ixtisoslashgan musiqa maktablarida solfedjio darslari o'tiladi.

3. Musiqiy ritm hissi- musiqani faol boshidan kechirish, musiqiy ritm ifodaviyligini emotsional his etish va uni aniq ijro eta olish qobilyatidir.

Tovushlarning past-balandligini his etish va ritmik harakatlarning ifodali mazmunini boshdan kechirish asosida yuqorida sanab o'tilgan uch qobilyat yotadi. Bu qobilyatlar musiqiy faolyat uchun zarur bo'lgan asosiy qobilyatlar bo'lsa-da, bu bilan qobilyatlar majmui (turlari) cheklanmaydi. U biz qayd etib o'tganlardan tashqari hali bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ularning barchasi muayyan faoliyatga nisbatan shaxsni o'z munosabatini bildira olishi, amaliy jihatdan o'z layoqatini, iqtidori, qiziqishini namoyon qila olishi va ma'lum bilm, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham psixolog olimlar qobilyatlar tushunchasiga eng avvalo tipik hodisa sifatida qaraydilar va fanning eng muhim muammosi sifatida unga o'z munosabatlarini bildirib kelishadi. Insonni kamol toptirish uning qobilyatlarini rivojlantirishdir degan asosiy metodologik qoidani olg'a surishadi. Qator olimlar qobilyatga inson shaxsining o'ziga xos psixologik xususiyati sifatida faoliyat bilan bog'lashadilar va tegishli faoliyatsiz umuman qobilyat bo'lishi mumkin emas deb hisoblaydilar. Shu sababli qobilyatni rivojlantirish va shakillantirish uchun yashirin qobilyatlarni yuzaga chiqarish va ularni yuqori darajaga yetkazish mumkin.

Qobilyatlarni yashirin va asosiy qobilyatlarga bo'linishi ularni shakillanish va o'sishini tahlil qilish imkonini beradi. Bunda shaxsni

shakillanish dialektikasi o'z ifodasini topadi. Shaxsning yashirin qobiliyatlariga kishining o'ziga xos xususiyatlari sifatida qaraladi va bu xususiyatlar uning yanada kamol topishiga asos bo'ladi, unda fe'l- atvorni vujudga keltiradi, har bir kishi o'zining psixik tabiatiga eng muvofiq faoliyatni tanlashida yaqqol ko'rinadi.

Pedagogika mana shu xulosalarga asoslanib bola ta'lim va tarbiya natijasida psixik rivojlanadi, degan asosiy fikrni ilgari suradi. Lekin, musiqa mashg'ulotlari psixik faoliyat namoyon bo'lishining shakillaridan biri ekanligi sababli musiqa pedagogikasi umumiy pedagogika va oliy nerv faoliyati fiziologiyasi fanlarining qoidalarini, ilmiy xulosalarini nazarda tutishi lozim.

Qobiliyatlar hayotda, iste'dodlar asosida shakillanadi. Shuning uchun ham tug'ma va o'zlashtirilgan (shakillantirilgan) qobiliyatlarning muvofiqligi masalasi keng muhokama qilinadi.

Taniqli olim B.M.Teplov musiqiy qobiliyatlar muammosini o'rganish jarayonida shunday fikrlarni ham ilgari suradi. Shulardan biri hech qanday psixologik xususiyat tug'ma bo'lmasligini, faqat iste'dod tug'ma bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. U iste'dodlar asosida musiqiy qobiliyatni rivojlantirishning sharti kishini mazkur qobiliyat uzluksiz asqotadigan faoliyatga jalb qilish ekanini asoslaydi.

Tabiiyki, pedagogika va psixologiya fanlari iste'dodning ko'rinishi, sifati har xil bo'lishini va shular asosida musiqiy qobiliyatlar ham turli darajada rivojlanishini inkor etmaydi, ammo, u tabiiy xususiyatlar bilan bog'liq cheklanishlarga emas, balki, har bir shaxsning ta'lim va tarbiya jarayonida ro'yobga chiqadigan imkoniyatlariga e'tibor qaratadi.

I.Pavlovning ta'riflashicha, kamol topish jarayonida vujudga keladigan har bir xususiyat tug'ma va o'zlashtirilgan xususiyatning qorishmasidir. Mana shu birikishdagi va o'zlashtirilgan xususiyatlar nisbati mazkur xususiyatning harakteriga, murakkabligi va o'ziga xos shakillanishiga bog'liq holda har xil bo'ladi. U shunday yozadi: "Hech narsa harakatsiz, qotib qolmaydi, balki,

doimo o'sishi, yaxshi tomonga o'zgarib borishi mumkin, buning uchun faqat tegishli sharoit yaratilsa bas"(.).

Musiqa ta'limida umumiy va maxsus xususiyatlar, ularning o'zaro bog'lanishi, shuningdek, iste'dodlarning sifatini aniqlash juda muhimdir. Psixologiyada iste'dod qobiliyatga nisbatan umumiyroq tushuncha bo'lib, maxsus qobiliyatlar paydo qiluvchi zamin sifatida talqin qilinadi. Psixolog olimlarning uqtirishicha maxsus qobiliyatlar faoliyatning ayrim maxsus sohalariga munosabatda namoyon bo'ladi, shu bilan birga u yoki bu maxsus qobiliyatlar ichida umumiy iste'dod ham bo'lishi mumkin. Musiqiy faoliyatga moyillik qobiliyat paydo bo'lishining dastlabki belgisi hisoblanib, qobiliyatni rivojlanishi uchunimkon mavjudligini bildiradi.

Juda ko'plab yirik pedagoglar, ijrochilar, metodistlar (G.Neygauz, B.Teplov, B.Shapov, T.Berkman va boshqalar) qobiliyatlar shakillanishini musiqa tarbiyasi sohasidagi ta'lim bilan o'zaro bog'liqligini o'rganganlar. Ular o'quvchi musiqa ta'limi jarayonida kerakli ko'nikma va malakalarni egallashi uchun unga ta'lim va tarbiyaning tashqi ta'siri yetarli emasligini, balki uni ichki o'ziga xos sifatlari va xususiyatlarini hisobga olish ham zarurligini tadqiq etishgan. Bunda asosiy vazifa ta'limni metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

Musiqiy qobilyatlar barvaqt, ko'pincha bolalar bilan maqsadga muvofiq ravishda shug'ullanishni boshlashdan ancha ilgari yuzaga keladi. Shunga asoslanib, bolalarni musiqa bilan shug'ullanishi uchun "qobilyatli" va "qobilyatsiz" deya farqlanadi.

Musiqiy qobilyatlar muammosini tahlil qilishda, avvalo ularning o'zaro bog'liq, shu bilan birga farqli (o'ziga xos) ravishda ko'zga tashlanmaydigan sifatlar yig'indisidan iborat bo'lishini ham e'tiborda tutish lozim. Bu o'rinda musiqani tinglash, uni anglay olish, tinglashni nazorat qilish, musiqiy xotira, diqqat, tasavvur va maxsus ijrochilik qobilyatlarini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Musiqiy qobilyatlar tarkibidagi musiqani anglash, musiqani mustaqil

idrok etish, uning go'zalligi va ifodaliligini his qilish, badiiy mazmuni ko'z oldiga keltirish va uni o'z hissiyotlari va kechinmalari bilan bog'lashdir.

Musiqani anglashni tarbiyalash mumkin va uning rivojlanishi musiqa mashg'ulotlarining qanday tashkil etilishi va bola qobilyatlarining boshqa turlari bilan uyg'un holda bir maqsad yo'lidagi uyg'un hatti- harakati, intilishi, qiziqish va hokozolarga bog'liq bo'ladi. Musiqiy anglash yorqin obraz va bolalar tushunadigan yuqori badiiy asosida tarbiyalanadi.

Agar bolalarda musiqiy mashg'ulotlarning tabiiy, erkin rivojlanishi tahlil etilsa, bu rivojlanish musiqiy ohanglarga qiziqish asosida amalga oshishini yaqqol his etish mumkin.

Eshitish qobilyati rivojlanishi uchun asarning musiqiy tuzulmasini- ayrim tovushlarning rang-barangligini eshitish qobilyatini rivojlantirish zarur. Eshitish bilan birga musiqiy nutqning eng muhim elementi bo'lishi ritmni ham rivojlantirishi mumkin.

Musiqiy faoliyatni muvaffaqiyatini ta'minlashda xotira ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha keq qamrovli bo'lib, eshitish mantiq, ko'rish va harakat xotiralarini o'z ichiga oladi.

Maxsus ijrochilik qobilyatlari ko'pchilik uchun cholg'u asbobini chalishga ehtiyojmandlikda, shu bilan ko'pchilik qiziqadigan zamonaviy (estrada) musiqalarini ijro etish va tezroq ko'pchilikni e'tiboriga tushishda ko'rinadi.

Xullas, musiqiy qobilyatlar ilmiy asoslangan, o'rganilgan ko'plab qobilyatlar va har bir bolaning o'ziga xos individual xususyatlarini keng qamrovli majmuidan iboratdir. Bulardan boxabarlik va ta'lim-tarbiya jarayonida ularni e'tiborda tutib, bolani imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish tutish musiqiy faoliyatni samaradorligini ta'minlaydi.

1.2. Musiqiy qobilyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat maqsad va vazifalari.

Ta'lim muassasalarida fortepiano cholg'usini o'rgatishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar musiqiy ta'limning umumiy didaktik prinsiplariga tayangan holda, maxsus ishlab chiqilgan dasturlar asosida shuningdek, fortepiano cholg'usini o'rganishga oid metodik manbalarga tayangan holda tashkil etiladiki, bu jarayonga o'ziga xos yaxlit tizim sifatida qarash lozim bo'ladi. Musiqachi-pedagog fortepiano mashg'ulotlarining dastlabki davridan boshlab barcha bosqichlarda musiqiy – estetik tarbiyaning hozirgi kundagi maqsadlaridan hamda kursning muayyan ta'limiy va tarbiyaviy vazifalaridan kelib chiqqan holda ish tutishi ta'lim mazmunini belgilaydi.

Umumiy musiqa ta'limining fortepiano cholg'usi sinifidagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari hukumatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga qo'yilayotgan talablar mohiyatidan kelib chiqadi.

Pedagogika nazaryasidan ma'lumki, shaxsning har tomonlama kamol topishi tarbiyaning mehnat, aqliy, estetik va jismoniy turlari birligidagi faoliyatda ta'minlanadi. Musiqa ta'limi va tarbiyasi ham o'z mohiyatiga ko'ra estetik tarbiyaga xosligi bilan o'z oldiga san'at sohasida faoliyatga jalb etilgan yoshlarni birinchi navbatda san'atga qiziqishlarini, muhabbat va ishtiyoqini to'g'ri yo'lga tushirish, ush bu jarayonni muvafaqqiyatli istiqboli uchun eng muhim omil hisoblanuvchi ijodiy va ijrochilik qobilyatlarini to'g'ri shakllantirish, san'atdagi va hayotdagi go'zallikni his etish va tushunishlarini rivojlantirish, musiqa bilan shug'ullanish, uning ijrochilik sirlarini o'rganishni o'zining hayotiy ehtiyojlariga aylantirishni ko'zda tutadi. Toki, shunday maqsad qo'yilmas ekan, musiqa cholg'usini o'rganish "shunchaki havas" yo'lga bo'lar ekan, bunday ta'limning hech qanday ma'nisi bo'lmaydi.

Estetik tarbiyaning mazmuni, mohiyati va uni amalga oshirish, talablari nuqtainazaridan cholg'u asboblarinio'rganish eng avvalo, musiqiy-ta'limiy va musuqiy- tarbiyaviy maqsad va uni amalga oshirishga yo'naltirilgan vazifalarga amal qilgan holda ish tutishni taqazo etadi. Bular o'quvchilarning

umumiy musiqiy, musiqiy nazariy bilimlarini, amaliy ijrochilik qobilyatlarini shakillantirish, o'sib kelayotgan yoshlarni musiqa san'atining jahon xalqlari, buyuk kompozitorlar ijodiga mansub asarlar, o'zbek bastakorlari, kompozitorlarining zamonaviy va xalq musiqa ijodiga tayanib yaratilgan eng sara namunalari bilan tanishtirib borish, shu orali ularda estetik did, dunyoqarashni tarkib toptirish, bolalarni badiiy havaskorlikni faol qatnashchilariga aylantirishdan iboratdir.

Fortepiano cholg'usi bo'yicha mustaqil, badiiy havaskorlik to'garaklari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga ta'lim bolalarga faqatgina cholg'uchilikni o'rgatishni emas, shu jarayonda o'quvchilarda musiqa san'atiga qiziqish va muhabbat uyg'otishi, ularning umummusiqiy o'sishiga yordam berishi, musiqiy-ijodiy va ijrochilik qobilyatlarini rivojlantirishi, musiqa asarlarini chuqur idrok etishlari va mustaqil baholay olishlariga erishish ko'zda tutiladi. O'quvchilar ijrochilik malakalarini takomillashtira borishi bilan ularni mustaqil shug'ullanishga o'rgatish ham muhim vazifalardan hisoblanadi.

Amaliyotchi pedagoglar o'quvchilarni musiqiy ijrochilikni, ijrochilik qobilyati va malakalarini rivojlantirish haqida fikr yuritib, bu o'rinda bildirgan xulosaviy mulohazalarida bolalarga cholg'u asboblarida havaskorlik darajasida chalishni, har qanday asarni notalari bo'yicha asta-sekinlik bilan mustaqil o'rganishlari uchun yetarli darajada musiqa savodini, musiqa asarida tasvirlangan voqelikni, hissiy kechinmalarni maxsus maktablar o'quvchilari darajasida tahlil qiladigan bo'lishlari takidlanadi. Bu faoliyatda bolalar muntazam ravishda ko'proq musiqa tinglashlari va ularni boshlang'ich nazariy tahlil qilishlari, varaqdan o'qish (notaga qarab) malakalarini egallab borishlari, ayrim, uncha murakkab bo'lmagan, imkon qadar xalq musiqasi namunalari ayrim qisimlarini, keyinchalik to'laligicha yoddan (eshitganini xotirasida qayta tiklab) chala bilishlari zarur.

Umumiy musiqa ta'limi tizimida (takidlab o'tilgan ta'lim muassasalari ko'zda tutilmoqda) o'quvchilarga cholg'u asbobini, xususan, fortepiano

chalishni o'rgatish va shu jarayonda ularning musiqiy ijrochilik qobiliyati, ko'nikma va malakalarini shakillantirishning hozirgacha to'plangan nazariy va amaliy bilimlari bir tomondan musiqa cholg'u ijrochilik havaskorliklarini musiqiy-estetik tarbiyalashning ayrim muammolariga qaratilgan samarali ilmiy-tadqiqotlar bilan, ikkinchi tomondan o'quvchilarga mukammal musiqiy-estetik tarbiya berishning ilmiy asoslangan yaxlit tizimi ishlab chiqilganligi, bunday tizimning o'quvchilarga fortepiano chalishni o'rgatish nazariyasi, amaliyoti, usul va vositalari kabi eng muhim shakillari (kategoriyalari) belgilanmaganligi bilan harakterlanadi.

Fortepiano cholg'usini o'rganish istagida mashg'ulotlarga qatnayotgan o'quvchilarni ushbu cholg'u ijrochiligini muvaffaqiyatli egallashlari imkonini beruvchi yaxlit metodik tizim va uning tashlikiliy-uslubiy asoslarini yorituvchi o'quv-metodik manbalarning taqchilligi, o'quv muassasalarini ular bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi va u yerlarda faoliyat yuritayotgan ko'plab pedagog-tarbiyachilar, cholg'uchilarni metodik tayyorgarligi nisbatan talab darajasida emasligi, o'quvchilarning musiqa san'atiga estetik munosabati yetarli darajada shakillanmaganligi, musiqiy-ijrochilik faoliyati ijtimoiy harakter kasb etmaganligi sabab bo'lmoqda. Cholg'u asboblarini o'rganish bo'yicha mashg'ulotlarda ijro malakalri o'z holicha tarqoq holda shakillanishi, yakka holdagi ijrochilik ansamblda ijro etishda amaliy musiqiy ko'nikmalarni batartib tarkib topmaganligi, musiqani idrok etish, ijro qilish va musiqiy ijodkorlikka yo'naltirilgan faoliyatni har xil turlari o'rtasida bog'lanishlarni yo'qligi o'quvchilarga mukammal musiqiy tarbiya berishga jiddiy to'sqinlik qilmoqda.

Fortepiano sinfidagi o'quv faoliyatini tashkil etishda o'quvchilarning yoshi, imkoniyatlarini hisobga olish zarurligi ko'pgina adabiyotlarda uqtirib o'tilgan. Shuningdek, yanada muhim bo'lgan komponentlar ko'nikma va malakalar, ya'ni o'quv, mavzuli, aqliy malakalarni shakillantirish ham alohida ta'kidlanadi. Fortepiano cholg'usi bo'yicha mashg'ulotlar oldiga qo'yiladigan eng muhim vazifalar to'g'risidagi ilmiy, uslubiy, o'quv adabiyotlarini

o'rganish, tahlil qilish va shaxsiy kuzatuvlarimiz natijasida quydagi omillarga tayanib ish tutish maqsadga muvofiq bo'ladi degan xulosaga keldik.

a)Cholg'u mashg'ulotlari (o'qitish tizimi) musiqashunoslik va fortepiano chalishni o'rgatish (Школа игры на фортепиано)sistemasiga asoslanishi;

b)O'rganish jarayonida musiqani idrok etish, his etish ko'nikmalarini tarbiyalashga intilish;

v)Mashg'ulotlarni fan sifatida tashkil etish, uning muayyan tarzda tuzilishi, _____ va ularni o'zlashtirish tartibini belgilashda qo'shimcha bilimlarni e'tiborda tutishda;

d)O'quvchining individual ruhiy hislatlarini hisobga olish va ularni ijodiy faoliyatiga yo'naltirish;

Shu o'rinda yana ijrochilik ko'nikmalari, musiqa bilan mustaqil va ijodiy shug'ullanish, musiqa asarlarini tahlil qilish, uni badiiy va estetik baholash, musiqa asarlarini ijro etish va og'zaki talqin qilish bo'yicha ma'lum ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni umumiy faoliyat mazmuniga singdirish.

Fortepiano sinfidagi mashg'ulotlar faqat ma'lum asarlar, mashqlar, ijrochilik texnikasi, mahoratini egallash kabi tor yo'nalish bilan cheklanib qolmasligi bu jarayonda ta'limiy va tarbiyaviy ishlar oldiga bolalarni musiqaga qiziqtirish, rag'batlantirish maqsadli faoliyatning o'zaro bog'liq turlariga jalb etish lozim. Turli janr, shakl va uslubdagi asarlarni o'rganish, chalish, mashq va etyudlarni o'zlashtirish asnosida texnik malakalarni tarkib toptirish ishlari, varaqdan o'qish, jo'r bo'lish, rahbar bilan jo'rnavozlikda chalish, eshitib chalish, tovushlarni ko'chirish (badiha, emprovizatsiya) shular jumlasidandir.

O'qituvchi fortepianoni o'rgatish doirasidagi faoliyatini har xil turlarini bir-biridan ajratmay ularni o'quvchining asosiy vazifasi atrofida umumlashtirishni talab qiladi. Bu o'rinda o'qituvchining o'zidan ham ijodiy izlanuvchanlik, tashabbuskorlik, topqirlik, metodik tayyorgarlik talab etiladi.

Musiqani varaqdan o`qish (pedagog ijrochidan, gramyozuvlardan) va tinglash uchun tanlangan ijrochilik repertuari o`quvchining musiqiy tasavvuri, tafakkuri, idrok etish qobiliyatlarini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Fortepiano cholg`usini o`rganayotgan o`quvchilarni musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini tarbiyalashga ijodiy yondashish musiqa ta`limi va tarbiyasini musiqiy amaliyot bilan bog`lashni ta`minlaydi, musiqiy tarbiyaning estetik va g`oyaviy-axloqiy vazifalarini oydinlashtiradi.

Fortepiano mashg`ulotlarini pedagogik tasnifiga ko`ra yakka holda, ansamblda ijro etish va jo`r bo`lish malakalarini o`quv faoliyatiga, musiqa bilan amaliy shug`ullanish (eshitib chalish, tovushlarni ko`chirish, varaqdan o`qish) malakalarini mustaqil ta`lim faoliyatiga, musiqa asarlarini tahlil qilish va estetik baholash malakalarini aqliy faoliyat malakalariga ajratish mumkin. Fortepiano mashg`ulotlarining mana shu qismlarini o`quvchilar tomonidan qay darajada o`zlashtirish talablarini har bir sinf kesimida belgilash pedagogik jihatdan to`g`ri bo`ladi. Bunda o`qituvchi har bir sinfda o`rganiladigan repertuar, hosil qilinadigan malakalar, tarbiyaviy vazifalarini qutyidagi tartibda (shaklda) aks ettirib borish mumkin:

1-jadval

Sinf	Janr	Uslub	Repertuar

2-jadval

Sinf	Yakka ijro malakalari	Ansabl ijrosi malakalari	Eshitib chalish malakalari	Varaqdan o`qish malakalari	Ijodiy yondashuv malakalari	Nazariy savodxonlik tushunchalari	Tarbiyaviy vazifalari

Fortepiano sinfidagi mashg`ulotlarni eng qulay, samarali shakli bu yakka tartib shaklidir. U qator afzalliklarga ega bo`lib, bunda: o`quvchilar bilan yaqin

aloqa, munosabatda bo'lish imkonini beradi; o'quvchilarni shaxsiy imkoniyati, individual xususiyatlarini yaqindan bilib, shunga ko'ra topshiriq berish, kamchiliklarni tuzatib borish, rivojlantirib borishga qulay zamin yaratadi, o'quvchi shaxsini chuqur tushunishni ta'minlaydi. Bunda o'qituvchi ikki jihatiga alohida e'tibor berishi lozim bo'ladi. A) muayyan bilim, ko'nikma malakalarni shakllantirishning ma'lum bir bosqichda amalga oshirishni; b) uzoq vaqtga mo'ljallangan vazifalarni amalga oshirishning muhim bo'g'ini sifatida qarash.

Har bir darsda o'quvchilarga aniq vazifalar berish lozim. Masalan, nazariy tushunchalar, asarni mustahkamlash, ijro texnikasi ustida ishlash, metroritm yoki texnik ijroni_____elementlari va hokazo.

Mashg'ulotlarni izchilligiga erishish, bunda bir darsda olingan bilim ko'nikma, malakalar keyingi mashg'ulotda mustahkamlab borilishi zarur. O'rganiladigan materialni asta-sekin, bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga tamoyili asosida yangi bilimlar me'yoriga muvofiq rivojlantirib borish lozim.

Topshiriqlarni o'qituvchi-rahbar yordamida, nazoratida, keyinchalik o'z holicha bajarish orqali o'quvchida mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirib borish mumkin. Oson, oddiy asarlarni mustaqil o'rganish, ularni turli tadbirlarda yoki sinov vaqtida ijro etilishi o'quvchida mustaqil ishlash malakalarini rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat darslarni yaxlit shaklda o'tkazish ham ya'ni, uy vazifasini tekshirilishi, yangi asar haqida tushuncha berilishi, amalda ko'rsatilishi, nazariy tushunchalar berilishi, varaqdan o'qish, tovushlarni ko'chirish, ansamblda chalish va boshqalar musiqiy faoliyatni mazmuni va sifatini oshirishga olib keladi.

Darslarni sifatli va mazmunli bo'lishi ko'p jihatdan o'qituvchining tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini unutmaslik lozim. O'qituvchi har bir darsga alohida tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchi bilan o'tiladigan dars loyihasini oldindan rejalashtirib olishi, uning ijodiy kamoloti uchun zarur komponintlarni hisobga

olib ish tutishi, bunda eng muhimi bolalarni musiqiy qobiliyatlarini e`tiborga olgan holda ularni tizimli ravishda rivojlantirish vazifalari bilan bog`lab olib borishi shart, musiqiy qobiliyatlar, xususan, musiqiy idrokni rivojlantirmasdan hech qanday muvaffaqiyatga erishib bo`lmasligi uning doimiy e`tiborida bo`lishi lozim.

Mashg`ulotlarni turli shakllaridan ham o`rinli foydalanish mumkin. Bu o`rinda darsning aralash tipi ijro etiladigan repirtuarni varaqdan o`qishni, ansamblda chalishni, mustaqil o`z ustida ishlash kabilarni o`z ichiga oladi.

Jamoa-yakka tartibdagi darslar o`quvchilar guruhining jo`rnavoqlik, musiqiy eshituvi, ansambillikni yanada faollik kasb etishini ta`minlaydi. Bunday darslar ma`lum bir tadbirlar (konsert, ko`rik-tanlov, sinov-imtihon) oldidan o`tkazilishi bolalarda mas`uliyat hissini oshirishga ham ijobiy ta`sir etadi.

Darsda mustaqil ishlash mashg`ulotning o`ziga xos shakli bo`lib, unda o`quvchilar o`qituvchi-rahbar ishtirokida musiqa asari, uning bir qismi, yoki muayyan maqsadga yo`naltirilgan xususiyatlarni rivojlantirish ustida ishlaydilar. Bunda o`quvchining qanday xatolarga yo`l qo`yganligi, qiyinchiliklarni hal etish vazifalari, nimalarga ko`proq e`tibor qaratish lozimligi haqidagi masalalar hal etiladi.

O`quvchilarni qandaydir bir yoki tugal doirada bilim, qobiliyat, ko`nikma va malakalarini shakllantirish, rivojlantirish haqida gap borar ekan, fortepiano sinfidagi mashg`ulotlar qiziqarli, erkin, repirtuarni xilma-xilligiga hambog`liq bo`lishini unutmaslik kerak.

Manashu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning amaliy yo`llari to`g`risida quyidagilarni alohida ko`rsatish mumkin.

1. Har xil darajada qiziqish va qobiliyatga ega o`quvchilar bilan ishlashda ularni individual xususiyatlarini hisobga olish, har biriga o`ziga xos vazifalar hajmini belgilash.

2. Har xil ijrochilik vazifalari ustida ishlash, o'rganiladigan asarlar sonini ko'paytirishda har bir o'quvchining repertuariga har xil murakkablikdagi namunalari kiritish.

3. Ta'limjarayonida fortepiano uchun maxsus yozilgan p'yesalardan, tanlangan mashq, etyudlardan tashqari qayta ishlangan xalq kuy-qo'shiqlari, qayta ishlab soddalashtirilgan akademik uslub va janrda yozilgan musiqalarni, keyinchalik (ta'limning keyingi bosqichlarida) opera, balet parchalarini 4,6,8 qo'lli fortepiano ansambli uchun qayta ishlangan asarlarni, fortepiano ansambli uchun maxsus yozilgan namunalarni kiritish mumkin.

Musiqiy qiziqish va qobiliyatlarni tarbiyalash keng qamrovli pedagogik vazifalarni ta'limiy, tarbiyaviylik jihatdan to'g'ri hal etib borish, o'quvchilarni imkoniyatlariga mos materiallar asosida jiddiy ijrochilik vazifalarini qo'yish kerak. Sinfda erishilgan natijalarni mustahkamlash uchun ilgari o'rganilgan asarlarni iloji boricha ko'proq esda saqlab qolishga erishish pedagogik faoliyatni samarali kechishini ta'minlaydi.

I-BOB bo'yicha xulosalar:

Kishilik jamiyatining hamma davrlarida ham musiqa inson hayotida muhim o'rin tutib kelgan. Uning ma'naviy, ruhiy taqdirining bir bo'lagi sifatida uning barcha hayotiy ko'rinishlarida ishtirok etib kelgan. Shu bois musiqa san'ati, uni inson ruhiyatiga, aqliy kamolotiga ta'siri, undan ta'lim-tarbiya ishlarida foydalanish, shuningdek musiqiy ijrochilikka o'rgatish, bu o'rinda shaxsning musiqiy qobiliyatlari, ularni rivojlantirish, musiqiy qiziqish va qobiliyatlarning inson psixikasi bilan uzviy bog'liqligi, uning psixologik asoslarini o'rganish, tadqiq qilish, fan sohasidagi olimlar, faylasuflar, pedagoglar, adabiyotshunoslar va hatto aniq fanlar bilan shug'ullangan mutaffakkirlarni ham qiziqtirib kelgan.

Hozirgi kunda jamiyatimizda, uning ertangi kunini yaratuvchilari bo'lmish yosh avlod tarbiyasida musiqa san'atining o'rnini va roliga yuksak

darajada e`tibor bilan qaralayotgani bejiz emas. Zotan, Prezidentimiz aytganidek “Bugungi kunda yoshlarni yuksak ma`naviy ruhda tarbiyalashda musiqa san`ati boshqa san`at turlariga qaraganda ko`proq va kuchliroq ta`sir ko`rsatmoqda”¹. Mamlakatimizda musiqa ta`limi va tarbiyasi sohasida ibratli ishlar amalga izchil ravishda oshirib kelinmoqda. Bolalar musiqa va san`ati maktablarida, maktabdan tashqari ta`lim muassasalari, umumta`lim maktablarda musiqa ta`limi mazmunini, sifatini yaxshilash bo`yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu o`rinda ta`limning muvaffaqiyatli kechishi ko`p jihatdan pedagog-rahbarning kasbiy tayyorgarligiga bog`liq bo`lib, uning pedagogik, psixologik, metodik jihatdan tayyorgarligi, mahorati, ijodiy tashabbuskorligi bolalarni san`atga bo`lgan mehrini, qiziqishini oshirish, ta`lim jarayonida ularni musiqiy qobiliyatlarini ro`yobga chiqarish, yanada rivojlantirishda asosiy omil bo`lib xizmat qiladi.

Musiqiy qobiliyatlar o`z o`rnida psixologik omil bo`lib, u juda ko`plab tur, shakl, ko`rinishlarda, bolaning individual xususiyatlari; ya`ni qiziqish, layoqatlari bilan bog`liq ravishda namoyon bo`ladi. Musiqa mashg`ulotlarida ularni hisobga olish, har bir bolaning qiziqish, va qobiliyatlarini sinchiklab o`rganib borish, shunga muvofiq holda ta`limiy-tarbiyaviy ishlar mazmunini belgilash, o`zlashtiriladigan bilimlar hajmini, topshiriq va vazifalar me`yorlarini taqsimlash ta`limning muvaffaqiyatli kechishini ta`minlaydi.

Tadqiqot ishimizning I-bobida musiqiy cholg`uchilik sifatlarida o`quvchi-yoshlarni musiqiy qobiliyatlari tasnifiga alohida to`xtalib o`tdik. Shu o`rinda ta`lim jarayonida o`quvchilarni musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari, shart- sharoitlari, o`qituvchining bo`yo`nalishdagi vazifalari mavjud ilmiy, uslubiy adabiyotlar, ilmiy-tadqiqotlarda asoslangan fikrlar, xulosa va tavsiyalar va shaxsiy kuzatuvlarimiz asosida tahlil qilindi. O`ylaymizki, har bir musiqa o`qituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyatida bunday ma`lumotlardan, bilim

va tushunchalardan boxabarligi besamar ketmaydi, aksincha ta'lim mazmunini va sifatini to'lig'icha tushunishiga yordam beradi.

Psixolog olimlarning uqtirishlaricha hech qanday qobilyat o'zidan-o'zi rivojlanmaydi. Har bir inson ma'lum bir layoqat bilan tug'iladi. Mana shu layoqat to'g'ri tarbiya va yo'naltiruvchi ta'lim jarayonida rivojlantirilmasa u o'z holicha qolib ketadi. Layoqat to'g'ri ta'lim-tarbiya tufayli qobilyatga aylanadi va uni rivojlantirish o'ziga xos pedagogik yondashuvlarga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonini talab qiladi. Bu jarayon tarixiy taraqqiyot mobaynida sinalgan pedagogik tajribalar, umumdidaktik prinsiplar, pedagogika, psixologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalariga, xulosalariga tayanadi. Ta'lim muassasalaridagi cholg'u ijrochiligi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish shakillari orasida yakka tartib holdagi darslar alohida ajralib turadi. Yakka tartibdagi ta'limning umuman cholg'u ijrochiligini o'rganishga yo'naltirilgan ta'limning eng muhim maqsadi o'quvchilarni ijrochilik qobilyatlarini rivojlantirishdir. Shunday ekan har bir o'qituvchidan musiqa chalishni o'rgatish metodikasidan zarurtayyorgarlik talab etiladi. Uning pedagogika, musiqa psixologiyasi pedagogik psixologiya, musiqa estetikasi, badiiy-ijodiy tarbiya qonunyalari bilan, ushbu metodikaning o'ziga xos xususyatlarini o'zida mujassam etadigan fortepiano ijrochiligi bilan ham uzviy bog'liq va aloqadorligini taqozo etadi.

II BOB: Musiqiy qobilyatlar va ularni shakillantirishning pedagogik omillari.

2.1. Cholg'u asbobi bilan shug'ullanish jarayonida musiqiy va ijodiyqobilyatlarni shakillantirish yo'llari.

Musiqa cholg'usini o'rganishni istab, ta'lim muassasasiga yoki to'garaklarga kelgan bolalarni qiziqish va ishtiyoqlarini, cholg'u asbobida chalishni o'rganish ular o'ylaganidek osongina kechmasligi, chinakkam intilish,

iroda, chidam bilan mashg'ulotlarga qatnashish, ta'limiy-tarbiyaviy vazifalar, topshiriqlar, talablardan osngina qutilib, o'z "havas" laridan kechib ketmasligi uchun ular bilan olib boriladigan ta'limning ilk davridagi faoliyat juda muhimdir. Musiqa pedagogikasining barcha tur va yo'nalishida bu davr haqli ravishda juda mas'ulyatli va murakkab bosqich hisoblanadi. Bu davrda eng muhim pedagogik vazifa havasmand bolalardagi musiqaga bo'lgan muhabbat va qiziqishga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, ularni qiziqish va intilishlarini qo'llab –quvvatlashlari kerak bo'ladi. To'g'ri tashkil etilgan mashg'ulotlar, pedagogk-rahbarning o'quvchi bilan muloqoti, munosabati, o'quvchining individual xususiyatlarini yaxshi o'rganib, shoshilmasdan ish tutish, boladagi qiziqish va intilishlarini rag'batlantirish bilan, vazifalarni bolani imkoniyatlariga mos ravishda tanlab, mashg'ulotlarni qiziqarli tashkil etish o'quvchilardagi musiqiy qiziqish, qobilyatni shakillanishi, rivojlanish, musiqiy idrok va ijrochilik ko'nikma va malakalarini rivojida asosiy zamin bo'lib xizmat qiladi. Bolaning musiqaga keyingi barcha munosabati musiqa san'atining bir turi sifatida barqaror sevib qolishi yoki aksincha tez sovub qolishi ta'limning dastlabki davri qanday tashkil qilinishiga bog'liq bo'ladi.

Fortepiano cholg'usi boshqa cholg'ularga nisbatan o'rganish ancha murakkab cholg'u bo'lib, tizimli, muayyan maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni, ruhiy, jismoniy irodani, diqqatni juda ko'p narsalarga (qo'llarni imkoniyatiga, notalarga, sanash-xisoblash, barmoqlarga, shtrixlarga, tovush sifatiga, dinamika va h.k.larga) taqsimlashni talab qiladi.

Ta'limning dastlabki bosqichida musiqiy eshitishni darajasini xisobga olish, uni shakillantirishga ta'limning asosiy mazmuni sifatida qarash lozim. Musiqiy asarlarni chalishga o'rgatishdan oldin o'quvchini asta-sekinlik bilan musiqani diqqat bilan, faol eshitishga o'rgatish lozimligi, fortepiano o'rgatish pedagogikasida alohida ta'kidlanadi. O'quvchi o'rganadigan musiqa asarlarini avvalo o'qituvchi ijrosida tinglaydi. Bunda u musiqaning harakterini tushunishi,

ritm o'zgarishlarini tinglashi, musiqiy frazalalarni ifodaliligini anglashi juda muhimdir. Shunda ularda o'qituvchining ko'rsatishiga e'tibori, o'z ijrosiga sezgirligi ortadi.

Musiqani tinglash, tahlil qilish ichki eshitishni rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayonda o'quvchilar bilan ishlash quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: qo'l harakatini to'g'ri qo'yish, belgilash (postonovka), tarbiyalash, tovushlar o'zgarishi, jarangini his etishga o'rgatish, kuylarni eshitib chalish, musiqani idrok etish, eslab qolishga doir ko'nikmalarni bir qadar hosil qilgandan keyingina fortepiano chalishni o'rgatishga o'tish mumkin.

Ta'limning ma'lum bir bosqichidan keyingi ishlar, aynan musiqa asarlarini o'rganish, ijro etish ustida olib boriladigan ishlar uni faol idrok etishni rivojlantirish vazifalari bilan bog'lab olib borilishi kerak. Buni pedagog-psixolog, musiqashunos olim G.Neygauz shunday ta'riflaydi: "qaysidir bir cholg'u asbobida chalishni o'rganishni boshlashdan oldin o'rganuvchi xox yosh bola, xoh katta yoshli kishi ekanligidan qat'iy nazar biror musiqani badiiy-ma'naviy o'zlashtirishi, ya'ni uni ongida saqlashi va o'z qulog'i bilan eshita olishi lozim. Musiqiy iste'dod namoyon bo'lishining hamma siri klavishga yoki cholg'u toriga birinchi marta qo'l tekkizishdan oldin musiqa miyada (tasavvurda) jaranglashidir." {...245 b} Xuddi shuning uchun o'quvchini notalarga qarab chalishga shoshiltirmaslik kerak. O'quvchida yetarli darajada tovush tasavvuri hosil bo'lganidan keyin va u notalarni ko'rish idroki-tovush tasavvuri-harakat turtkilarini hosilasi yordamida o'qiydigan bo'lganidan so'ng nota yozuvini o'qib, chalishga o'tish mumkin.

Amaliyotda esa cholg'u asbobida chalishni taqlidiy (slux bilan) o'rgatish ko'p uchraydi, bu esa ta'limni sifatiga salbiy ta'sir etadi. O'quvchilarni nota bilan chalishga o'rgatish o'qituvchining og'zaki tushuntirishi va amalda ko'rsatib berishi orqali amalga oshirilishi to'g'ri bo'ladi. O'quvchilar dastlabki paytda nota belgilarining ko'rinishini shunchaki- ixtiyorsiz idrok etadilar va klaviaturada ana shunday ixtiyorsiz harakatlarga ko'chiradilar. Shu tariqa

birinchi galda ko'rish-harakat bog'lanishlari vujudga keladi va ular musiqani chalish vaqtidagi tovush taasurotlari bilan to'ldiriladi. Bunda ijro to'liq tushunilmasdan , idrok etilmasdan bajarilishiga olib keladi. Buning uchun o'quvchida ijro etilayotgan kuyga ongli munosabatni shakillantirish, harakat usullarini va malakalarini tarkib toptirish kerak.

Cholg'u asbobini o'rganishga kirishgan o'quvchida dastlab tovush, asar obrazi, mazmunini his etishlarini tarbiyalash lozim. Bunday ehtiyoj musiqiy-eshitish tasavvurining faollashuvi orqali shakillanadi. Tajribali pedagoglar fikricha musiqiy-eshitish tasavvuri sof eshitish tasavvuri bo'lmaydi. Harakat tasavvurlari bilan musiqiy-eshitish tasavvurlarining aloqasi asosiy jihat xisoblanadi va musiqiy qobilyat, idrokni rivojlantirish shundan boshlanishi lozim.

Musiqani eshitib tasavvur qilish qobilyati musiqiy eshitishning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Musiqiy eshitish yetakchi musiqiy qobilyat ekanligi asoslangan.

Bola musiqiy kamol topishi mobaynida musiqiy tasavvurlar shakillanishining bir necha bosqichlarini o'taydi:

1. Bilib olish.
2. Qayta tiklash.
3. Tasavvurlar bilan erkin, ixtiyoriy ishlay olish.
4. Dastlabki obraz tasavvurini bo'linishi komponentlarga ajralishi va yangi talqinlarga birikishi, natijada yangi obrazni vujudga kelishi.

Bolalarni musiqiy estetik eshitish tasavvurlari bilan ishlash darajasi bir qadar rivojlangandan keyin ijodiy faoliyatga kirisha oladilar. Pedagog bolalarga kuyni ovoz bilan takrorlashni, ongli tasavvur qilishni, shundan so'ng fortepianoda chalishni, notaga qarab ijro etishni taklif qilib, ularni faol shug'ullanish va ijodiy yo'sindagi izlanish faoliyatiga jalb etadi. Bu o'rinda ham musiqiy eshitish tasavvurlari alohida o'rin tutadi. Eshitilgan kuyni xotiradan chalish topshirig'ini bajarish uchun yorqin va aniq shu bilan birga

musiqiy obrazni idrok etishga tayanadigan tasavvurlar bo'lishi zarur. Fortepiano chalishni o'rganayotganlarning bunday faoliyati avvalo eshitib chalish, tovushlarni ko'chirish va musiqani to'g'ri, badiiy obrazli chalish usul va malakalarini shakillantirishga qaratilmog'i kerak. Aytib o'tganimizdek ta'limning dastlabki kunlaridan boshlab eshitish malakalri va harakat komponentlari o'zaro bog'lanishi lozim, ta'limning faolligi va ijodiyligi ham xuddi mana shundadir. Fortepiano chalishning eng muhim jihati harakatlarning erkinligi bo'lib, u topshiriqni, maqsadni oldindan anglash va unga erishish uchun intilish, shuningdek kerakli tovushning eshutilishini his etgan holda harakatning o'zini oldindan tasavvur qilish bilan harakterlanadi. Erkin harakat doimo maqsadga muvofiq bo'lishiga olib keladi, chunki, avvalo qandaydir obraz, g'oya, keyin maqsadli harakat vujudga keladi.

Chalish harakatlarining erkinligi pedagogdan fortepiano shalishni o'rgatishni ilk boshlanishidan hamma uchun qo'llarni bir xil "qo'yish"(postanovka) qoidasidan voz kechish, birinchi galda o'quvchini cholg'u asbobiga, tovush chiqarish mexanizmi sifatidagi klaviaturaga to'g'ri munosabatni tarbiyalashga e'tibor qaratish kerak. Shuning uchun pedagog o'quvchida musiqiy tasavvurni rivojlantirish bilan bir paytda o'quvchiga eng umumiy qoidalarni: asbob yonida qanday o'tirish, qo'llarni anday ko'tarish va tushurish, tirsak qanday turishi kerakligi va harakatlarni tushuntirishi lozim.

O'quvchi bilan oddiy kuylarni chalish va ko'chirishda turli harakatlardan foydalanish lzoim. Shunga ko'ra chalish harakatlarini tashkil etishda ikkita komponentni birlashtirish kerak: O'quvchining musiqiy tafakkuriga va musiqiy eshitish tasavvuriga asoslanib sodda, ifodali, elastik ijro etishga mos harakatlarni tarbiyalash kerak. Tovush obrazlarining harakteri doimo yangitdan vujudga keladigan qandaydirmalakalarga tayanadi. Xo'sh, bu o'rinda malakalarni o'zi qanday shakillanadi? Bu o'rinda eng asosiy omil musiqiy eshitishga va o'zini-o'zi nazorat qilishiga bog'liqdir.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir o'quvchida musiqiy eshitish tasavvurlarining harakat tasavvurlariga bog'lanishi har xil tarzda namoyon bo'ladi. Bunda o'uvchining tabiiy iqtidori ham, umumiy kamoloti, ta'limdan oldingi tayyorgarligi ham muhim rol o'ynaydi.

Musiqiy eshitish tasavvurlarini rivojlanishi va chalish harakatlari orqali malaka rivojlanishi mumkin. Bu rivojlanish quydagicha bo'lishi haqiqatga yaqinroqdir:

1. Bitta tovushni, uning harakteri va tembrini eshitib tasavvur etish;

2. O'quvchidagi mavjud eshitish tasavvuriga muvofiq bitta tovushni har xil chalishqobiliyatini rivojlantirish. Buning uchunchalish harakatlarini tasavvur etish va mayin-cho'ziq, chuqur-qattiq, yengil-qisqa kabi muayyan harakterdagi tovushlarni chiqarishga erishish kerak. G.Neygauz chalish texnikasining elementlarini ta'riflab shunday yozgan edi: " Men birinchi element deb, bitta notani olishni tavsiya etaman. Qiziquvchan va sinchikov pianinochi fortepiano chalish borasida "zarracha" ham qiziqadi. Bitta tovushni fortepianoda barmoq bilan chalishning o'zi ham qiziqarli va bilish nuqtai nazaridan muhim vazifadir..... Ana shu notani turli barmoqlar bilan pedaldan foydalanib, foydalanmay chalish mumkin. Bundan tashqari uni juda "uzun" nota qilib chalish va tovush batamom tinguncha tutib turish ham, keyin bir oz qisqa va juda qisqa nota qilib chalish ham mumkin. Agar ijrochida yaxshi tasavvur shakillangan bo'lsa, u bir nota orqali juda ko'p hissiyotlarni: muloyimlik, va shaxdamlik ifodalay oladi." {...134-235 b.}

Fortepiano chalishni dastlabki davrida o`quvchilarning turli usullar bilan, xilma-xil tovush chiqara olish qobiliyatini tarbiyalashning eng yaxshi usuli fortepianoda kuylay bilishga o`rgatishdir. Bunda " Ichki eshitish"ning ham o`rni alohida ahamiyatlidir. Masha shu jarayonda tovush jaranglamasdan oldin ijro xususiyatlarini hayolan eshitish qobiliyati hal qiluvchi o`rin tutadi. Tovushni ijrodagi jarangini yaqqol va to`la tasavvur qilmay turib, badiiy ijroga erishib bo`lmaydi.

3. O'quvchida oddiy musiqiy ohangni, kichik kuyni eng asosiy bir necha notasini (tovushni) chalish qobiliyatini rivojlanishi.

4. Nota yozuviga o'tish ilgari o'zlashtirilgan tovushni nota belgilarini klavishlarga bog'liqligisiz yozish deb tushunishni anglatadi. Nota belgisi klavishlarni emas tovushlarning tasovvurini vujudga keltirishi kerak.

Bunday ish tutish quydagicha amalga oshiriladi. Darsda o'qituvchi avvalo o'quvchi bilan birga notaning barcha belgilari (applekaturalar, dinamika, shtrixlar orqali) o'quvchi chalgan va o'zlashtirgan kuyning parchasini yozadi. Bunda chiziqlarning ahamiyati, ritmika, pauzalar tushuntiriladi. Keyin o'quvchi ijro etgan yana bir necha kuylar yoziladi. Tushuntirishni qiziqarli bo'lishi o'quvchini nota yozuvini mavhum narsa deb emas, balki o'zi ijro etgan musiqani ifodasi (qayd etilgani) deb tushunishiga olib keladi. Nota matnini tahlil qilish va kuylab ko'rish o'zi eshitib va chalib ko'rmagan har xil oddiy kuylarni xarakterini notalar bo'yicha tasovvur etish qobiliyatini rivojlantiradi.

5. Notaning matnini idrok etish nota bilan chalish jarayonidagi faoliyat mazmunini tashkil etadi. Bu jarayonda o'quvchiga topshiriq (kuyni o'rganish va chalish) beriladi, o'quvchi kuyning notasini o'qishi (juda sekin varoqdan, solfedjio uslubida) o'qishi, hab bir notani kuy jarangidagi o'rni, xususiyatini anglagan holda taqqoslashi, shundan keyin o'qishni takrorlab applekatura va shtrixlarni tushunib olishi, o'qishni yana takrorlab, kuyni ijro etish harakatlarini ko'z oldiga keltirishi kerak. Nota matni bilan mana shu tariqa ishlashda vujudga keladigan musiqiy eshitish tasovvurlari cholg'u asbobi orqali nota matnida ifodalangan badiiy obrazni, mazmunni, tasvirni gavdalantirish uchun zarur harakatlarni, talqinlarni yuzaga keltiradi.

O'quvchining eshitish tasovvurlari, ko'z oldiga keltirishi, fantaziyasi, hayol qilishi va mo'ljallari faol eshitish orqali ijro harakatlari o'rtasidagi mutanosiblik o'quvchining ijro texnikasi rivojlanishi va takomillashuvida eng muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ma`lumki, har qanday musiqiy ijrochilikning maqsadi, ta`lim muassasasida o`quvchi (havaskor) ga ta`lim-tarbiya berishning asosiy vazifasi turli musiqa asari ustida ishlash, o`rganishdan iborat. Mana shu jarayonda o`quvchilar musiqa bilan yaqindan tillashadilar, uni his etadilar, musiqiy obrazlarni tasavvur qilish uning ichiga kirishga muyassar bo`ladilar, matn ustida (musiqiy matn) ongli, savodli ishlash ko`nikma va malakalarini egallaydilar, texnik ijro qiyinchiliklari ustida ishlash va ularni yengil yo`llarini o`rganadilar, asta-sekinlik bilan ularda cholg`uchiga xos bilim, ko`nikma va malakalar bilan rivojlanib boradi. Bu jarayonda o`quvchilarning nazariy savodxonligi bilan birga musiqiy tafakkuri, fantaziyasi, musiqani idrok etish, yangi talqinlar ijod qilish, mustaqil ishlash, diqqat, xotira, eshitishni nazorat qilish kabi jihatlar majmuyi-qobiliyatlari shakllanadi.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotidan ma`lumki har qanday ta`lim turida o`quvchi (talaba, havaskor) da mustaqil ishlash, ijodiy ishlashga intilish uyg`onmasa u o`z ustida mustaqil va ijodiy ishlamas, izlanmasa, ta`lim faqat dars-mashg`ulot bilan cheklanib qolar ekan, bunda har qanday iqtidor egasida ham rivojlanish, o`shish bo`lmaydi.

Cholg`u ijrochiligiga o`rgatishda ham o`quvchilarda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish yo`llaridan eng muhimi bu ularni mustaqil ishlash va ijodiy faolligini uzviy oshirib borishdan iborat bo`lmog`i kerak.

Mustaqil ishlash ko`nimalarini tarbiyalash birinchi navbatda o`qitish usullarini samaradorligiga bog`liq bo`lib, ular o`quvchida mustaqil ishlashning yoqimli, muntazam samarali mashg`ulotiga, aslo majburiy emas-aylanishini ta`minlashi lozim.

Cholg`u asbobini o`rganish jarayonida o`quvchilarda mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish quydagilarni o`z ichiga oladi:

- 1.Musiqiy eshitish tasavvurlari bilan ishlash;
- 2.Eshitish diqqatini va o`zini-o`zi nazorat qilish ko`nikmalarini hosil qilish;

3. Mustaqil ishlashga ongli munosabat qaror toptirish, tahlil qilish, umumlashtirish malakalarini egallash.

4. Musiqa sanati ijodiy munosabatni qaror toptirish, faollik, tashabbuskorlik, intiluvchanlikni mustaxkam qaror topishi;

5. Mustaqil ishlash ta'lim jarayonining tarkibiy qismiga aylanishi, u faqat uy vazifalarini bajarishdan iborat bo'lib qolmasligi kerak. Darsda amalga oshiriladigan hamma ishlar o'quvchini anglashilgan, vujudga kelgan muammolar, qiyinchiliklarni mustaqil hal qilishga da'vat etish muhimdir. Har qanday yaratuvchilik. Ijod, faoliyat faqatgina mehnat orqali samara beradi, har qanday muvafaqiyatga mehnat orqaligina erishiladi, shu ma'noda har qanday qobiliyatlarni shakillantirish, rivojlantirish ro'yobga chiqishi ham to'g'ri tashkil etilgan, yo'naltirilgan, yo'lga qo'yilgan mehnat mahsuli hisoblanadi. Mustaqil ishlash esa o'quvchini mustaqil ravishda mehnat qilishga o'rgatadi. Mehnat-harakat rivojlanishning asosiy qonunyatidir.

Mustaqil faoliyat qanchalik ongli, ixtiyoriy bajarilsa shunchalik samarali bo'ladi. Fortepiano cholg'usida ijro etish- ongli faoliyatdir. Har qanday ta'lim singari mustaqil ishlash ham fikrlashni, irodani, tashabbusni va ijodiy tasavvur talab qiladigan mehnatdir. O'quvchida mustaqillikni rivojlantirish yo'lidagi barcha sayi-harakatlar ularda san'atga ijodiy munosabatni shakillanishiga olib keladi. Pedagogika fani shaxsni tarbiyalash va unda maxsus ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishga bir-biridan ajralmas yagona pedagogik jarayon sifatida qaraydi. Musiqa bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchi his etadigan yuksak estetik kechinmalar bilan birga cholg'u asbobini chalish ijodiy mustaqillikni, diqqat va intizomni, irodani, aniq maqsadga intilish malakalarini rivojlantiradi.

Har qanday metodika kabi, cholg'u asbobini chalishni o'rganish, shu jarayonda ularni musiqiy va ijodiy ijrochilik qobiliyatlarini shakillantirish va rivojlantirishga qaratilgan usullar juda ko'p bo'lib, bu o'rinda pedagogning zukkoligi, o'zining ijodiy yondashuvchanligi, har bir o'quvchiga o'ziga xos

yondashuvi, vazifalar, topshiriqlar, talablarni o'quvchi imkoniyati, layoqati, zarur shart-sharoitlaridan kelib chiqib qo'yilishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bizning o'z amaliy faoliyatimizda qo'llagan usullar ta'lim muassasalarida fortepiano chalishni o'rgatishning boshlang'ich bosqichida quydagi natijalarga erishish imkonini berishiga ishonch hosil qildik.

-Musiqiy qobiliyatni nisbatan sust yoki "iste'dodsiz" hisoblanuvchi bolalar musiqiy jihatdan kamol topishga layoqatli bo'lib qoladilar;

-O'quvchilarda cholg'u asbobini (fortepiano) chalishga, o'rganishga qiziqish vujudga keladi;

-Fortepiano chalish malakalarini shakllantirishga doir ishlar samaraliroq qiyofa, mazmun kasb etib boradi;

-O'quvchilarning badiiy obrazlarni his etish, idrok etish, ijodiy tasavvur kengayadi;

-Badiiy faoliyat uchun zarur sifatlar shakllanadi;

-O'quvchilarda mustaqillik (mustaqil ishlash) va tashabbuskorlik xislatlari rivojlanadi;

-O'quvchining diqqati, irodasi, maqsadga intilishi faollashadi, o'zini-o'zi nazorat qilish mas'ulyati ortadi;

-O'quvchining o'ziga xos sifatlari har tomonlama rivojlanadi.

2.2. Cholg'u mashg'ulotlarida o'quvchi va pedagog faoliyatining mazmuni va turlari.

Cholg'u asbobi, xususan fortepiano sinfida chalishni o'rgatish jarayoniga mustaqil va yahlit tizim sifatida qarab, hozirgi vaqtdagi musiqiy-estetik tarbiyaning maqsadlaridan, maktab ta'limining muayyan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalaridan kelib chiqib faoliyat yuritishning mazmunini belgilaydi. Bu faoliyatni mazmunli va sifatli kechishida o'qituvchi va o'quvchining

hamkorlikdagi, bir maqsadga yo'naltirilgan o'quv, ijodiy faoliyati asosiy rol o'ynaydi.

Fortepiano chalishni o'rganish uchun muayyan tizimlashtirilgan vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Bunda asarlar ustida bosqichma-bosqich ishlash muhimdir. **Birinchi bosqich**da asosiy ish mazmuni nota matni bilan tanishish, uni o'qish, yushunib olish, ilk tahlil qilish kabilardan iborat bo'lishi lozim. **Ikkinchi bosqich.** Qismlar bo'yicha olib boriladigan ishlar. Ijrochilik g'oyasini shakillantirish, tovushning zarur sifatini topish, ifodali o'zlashtirish, texnik murakkabliklar, pedaldan foydalanish va hakoazolardan iborat bo'ladi. **Uchinchi bosqich.** Bu bosqich asarning g'oyasini uzil-kesil aniqlash, badiiy vazifalarni hal qilish va xususiy talqinni vujudga keltirish bosqichi hisoblanadi.

Agar ijrochining musiqa asari ustida ishlashdagi asosiy vazifasi badiiy obrazni ifodalashdan iborat bo'lsa, uni hal qilishning asosiy vositalaridan biri kerakli darajadagi sifatli tovushni topa olishdir. G.Neygauz "musiqa-tovush san'ati" deb yozgan edi.

Fortepiano ta'limining dastlabki paytidan boshlab tovush ustida ishlash, bu faoliyat faqat barmoqlarni chaqon ishlatish yoki texnik mahoratni egallashni emas, har qanday mashqlarda hamifodali chalish, muayyan tembr rang-baranligini aks ettirishni taqozo etadi. Fortepiano chalishni eng ko'p uchraydigan usullaridan biri legato bo'lib, u fortepianoda "kuylash" imkoniyatini yaratadi. O'quvchini birinchi tovushdan boshlab o'zining ijrosini diqqat bilan eshitish, tovush cho'zimini ham, tembri va chiroyli tugallanishini ham eshita olishiga o'rgatish kerak.

O'quvchiga musiqiy tarbiya berishning ikkita muhim omili haqida to'xtalib o'tosh lozim: 1) tovushni oxirigacha eshitish; 2) gorizontal harakatni va musiqani rivojlanishini sezish ko'nikmalari. Man shu iiki omil har qanday ijro uchun yaaluqli bo'lib, tovushni oxirigacha eshitish oldingi tovushni

eshitish, musiqa harakatini sezish esa o'ylash va oldinga qarab, eshitish demakdir.

Qo'l va barmoqlarni chaqqon, yengil harakatlantirish chiroyli ijro ustida ishlashning zarur shartidir. Barmoq ba qo'lni klaviaturaga qo'ymaslik, balki undan tovushni olish, chiqarish, klavishni bosib, tutib turmaslik (zarurat bo'lmagan holda), balki tovushni tinglash, qo'lni ko'tarmaslik, balki nafas olish lozim.

Agar quloq tovushni oxirigacha eshitmasa, barmoqlar harakati sustlashadi, tovush o'zidan oldingi tovushga qo'shilmay, frazalar uzuq-yuluq eshutilishiga saba bo'ladi. O'quvchida bitta tovushni hae xil ohangda va turlicha usulda ijro etish ko'nikmasini tarbiyalash ham muhimdir. Bularning barchasi eshitib tasavvur etish qobilyatining shakillanishi va uzluksiz takomillashuvi, eshitishni nazorat qilishning rivojlanishi ko'nikmasi bilan belgilanadi.

Yaxshi ligatoning muhim sharti- chalinayotgan tovushlarni yagona chiziq sifatida, ya'ni har bir tovush o'zidan oldingi tovushdan kelib chiqayotgandek tasavvur etish qobilyatining tarbiyalanishidir. Ligatoni ijro etishda shunga ahamiyat berish kerakki, shtrix- ligato- tovush chiqarishning boshqa usullari- non legato, portamento, stakkatolar shakillanishining asosi bo'lib hisoblanadi.

Tovush ustida ishlash musiqiy intonatsiya (talaffuz) bo'yicha shug'ullanish bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki musiqa o'z tabiatiga ko'ra intonatsiyadir. Ma'lumki, musiqachining o'ziga xosligi avvalo tovushlarni ifodalashida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham biz ko'pchilik xonandalarning ovozlaridan bilib olganimiz kabi mashhur pianinochilarni ijro tovushlaridan va usulidan "taniymiz". Gap shundaki, pianinochi asarning faqat ohangini emas, balki butun uyg'un va ko'p ovozli to'qimasini ham ifodalaydi, ana shu to'qimaning shirali yoki bo'g'i, xira ijro etilishi pianinochiga bog'liqdir. Mana shularning hammasini ta'limning dastlabki paytlaridan boshlab o'rgatib borish lozim.

Kuy ustida ishlash uning tuzulishini o'rganishdan, ayrim parchalarining miqyosi va muhimligini intonatsiyalari, frazalari va umuman butun kuyning rivojlanishi xususyatlarini aniqlashdan boshlanadi.

Mashg'ulotlarda nyuanlar (dinamik tuslar) ustida ishlashga gam alohida e'tibor berish lozim. Bezaklarni bajarish ham o'quvchilar uchun ma'lum darajada qiyindir. Bezashni avvalo, har doim alohida o'rganish lozim. Umuman olganda tovush ustida ishlash ifodali, tovush vazifalarini tushunarli, musiqiy ma'noni ifodalashga yordam beradigan ijro harakterlarini ko'rsata bilishni o'zlashtirish demakdir.

Musiqali ijro vaqt meyyori, o'lchovi bilan bog'liqdir. Asardagi ritm muayyan vaqt o'lchoviga asoslanadi va ma'lum uslub, janr, shakl qonunyatlariga bo'y sunadi. Tovushlarning uzunligi va jarangdorligidagi uzilushlar musiqa metri deb ataladigan muayyan tizimdagi shartli nota kattaliklari vositasida yoziladi. Tabiiyki, jonli musiqa ijrosi hech qachon nota yozuvidagi arifmetik nisbatlarga to'la mos bo'lishi mumkin emas, chunki nota yozuvi faqat sxema bo'lib, ijro doimo ijrining hissiyoti va kechinmalari bilan to'yinib, uning kayfiyatini o'ziga singdirgan bo'ladi. Shuning uchun nota ritmi faqat belgilar tizimi bo'lib, unga "jon baxsh etish", badiiy obrazni ifodalash nuqtai-nazaridan talqin etish zarur bo'ladi.

Boshlovchi pianinochilarda ritmni his etishni tarbiyalash eng qiyin sifatlardandir. Ritmni tabiiy his qiladigan o'quvchilar uni tabiiyligicha sezsalor, hech qanday o'rgatishsiz va maxsus ta'limgizharakatlanadilar va muayyan ritmda raqsga tushunadilar. Ritmni his etmaydigan o'quvchilar esa aksincha o'z harakterlarini muvofiqlashtira olmaydilar va uni qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar.

Musiqa pedagogikasida ritm hissini tarbiyalash va rivojlantirishga yordam beradigan qator usullar ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan:

1. Avvalo nota matnidagi ritm yozuvlarini aniq o'qish uchun og'zaki va ichda sanash samarali usul hisoblanadi. O'qituvchilarning ko'pchiligi "i" dan

boshlab sanashni qo'llaydilar va bu har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi, bunday sanash qisqa (sakkiztalik, o'n oltitalik) larda qo'llanishi mumkin. Ko'pchilik o'quvchilar ijro vaqtida baland ovoz bilan sanaydilar yoki sanab turib ijro etadilar. Bu eshitish idrokini buzadi. Bunda eng yaxshi meyyor ichda sanashdir.

2. Punktir ritm ancha qiyinroqdir. Bunda ba'zan ikkinchi "i" ni ham qo'shib tezroq sanash mumkin. **(misol)**

Qisqa cho'zimlar, punktir ritmlar, har xil bezashlar ko'o uchraydigan og'ir sur'atli sonatalar ijro etish juda murakkabdir.

3. O'quvchilar taktning hissasini juft yoki toq miqdordagi cho'zimlarga bo'linadigan, masalan bir taktda sakkiztalik va o'n oltitaliklar, boshqa taktda sakkiztaliklar va triollar bo'ladigan hollarda ancha qiynaladilar. **(misol)**. Bunda o'quvchining har xil miqdordagi 2,3,4,5,6 hissalarini bitta sanoq birligiga joylashishiga erishish kerak.

4. Ko'p ritmli birikmalarni ijro etish ham murakkab vazifadir. Ikkinchi uchga birikishi esa eng oson birikmadir va uni avval o'zlashtirish kerak. **(misol)** Bunda o'quvchi avvalo ko'p ritmli birikmani eshitishi, his etishi, shundan keyin navbatma-navbat o'ng qo'l partiyasini va chap qo'l partiyasini chalishi, so'ngra triol partiyasini uzmasdan chalish bilan unga duolni kiritishi kerak. Bu o'rinda o'quvchining diqqatini duolning ikkinchi notasi triolning ikkinchi notasidan keyin uzmay olinishiga qaratish lozim.

O'qituvchi bilan o'quvchining ikki qo'l partiyasini birgalikda chalishlari yaxshi uslub sanaladi. O'qituvchi duolni, o'quvchi triolni chaladi. **(misol)**

5. Ritm ustida ishlashda G.Neygauzning fikricha o'qituvchining ham, o'quvchining ham dirijorlik qilishi asarning "nafas olishi"ni his etishda yordam beradi.

6. Sur'atning birligini his etishga o'rgatish uchun o'quvchilarda sanash birligini tarkib toptirish kerak. Sur'atni bir xilda saqlab turish uchun uni vaqti

vaqtida sur'at bilan taqqoslab turish, asarning birinchi frazasini tasavvur etgan holda o'zini nazorat qilib boroshi lozim.

7.Ijroda ko'pchilik yo'l qo'yadigan hatolardan biri tovush kuchayganida ijroni tezlashtirish va tovush pasayganida sekinlashtirishdir. Mana shu xatoning sababi jaranglash kuchayganida hissiy ichki eshitish tasavvurini tovush jarangidan oldinga o'tib ketishi, jarang so'nishida aksincha, ijrichining diqqati bo'linishi oqibatidir.

8.Pauzalar ijrochilikda muhim o'rin tutadi. Cholg'u asbobini o'rganuvchi o'quvchilar ko'pincha qisqa va uzun pauzalarni ifodalilik ahamiyatini tushunmaydilar. O'quvchilarda pauzalarni emotsional tushunish, asar mazmuniga xizmat qilishini his etgan holda ijro etishga o'rgatish zarur. O'z o'rnida pauzalarni "savol pauzalari", "javob pauzalari", "tasdiqlash pauzalari" sifatida tushunish mumkin.

9.Sur'atning birligi ijroni yaxlitligini, shakillning bir xilligini ta'minlash omili hisoblanadi. O'qituvchi o'z shogirdiga iloji boricha ilgarilovchi tasavvur qobilyatini shakillantirishi lozim, bu tasavvur o'quvchiga o'rinlarni muayyan jaranglashi, ularni ritmik o'ziga xosligi, dinamikani ifodaliligini shakillanishiga xizmat qiladi. Badiiylikni ta'minlashda ba'zan sur'atdan og'ishga yo'l qo'yiladi. Binobarin musiqada agogikadegan tushuncha ham borki, u eng ta'sirchan, ifodali ijroni ko'rsatish maqsadida sur'atdan vaqtincha og'ishni anglatadi. Sur'atdagi og'ish asosan romantik va raqs harakteridagi asarlarda qo'llanilib, ular frazalar ichidagi qisqa sekinlashuv yoki tezlashuvdaniborat bo'ladi.

10.Sur'atdan og'ish va sur'atda chalish ijroning musiqiylik darajasiga, ijrochining bilimi, aqliy barkamolligiga bog'liqdir. Buni o'rgatish qiyin, buning uchun ijrochining o'ziga xosligi bilan bog'liq ichki tuyg'u bo'lishi mumkin. Bastakor g'oyasining "siri"ni anglagan va shu asosda ijroning barcha vositalarini asar mazmuniga muvofiqlashtirilgan ijrochi erkin bo'la oladi. Ritm musiqada ijrosida eng muhim omil bo'lib, Neygauz ta'biricha " tovush

tug'ildigan, yashaydigan va halok bo'ladigan ” muhit sifatida eng avvalo ijrochining erkinligi yoki yo'qligini ifodalaydi.

Pedaldan foydalanish. Ma'lumki. Fortepiano o'ztabiatiga ko'ra urma cholg'u asbobi bo'lib, ohangdorlik ustida ishlashda, tembr bo'yoqlarini izlashda tovushlarning to'laligi va keng hajmda bo'lishini ta'minlashda ijrochiga ma'lum qiyinchilik ham tug'diradi. Mana shu o'rinda pedal muhim o'rin tutadi. O'ng tomondagi pedal pianinochiga katta imkoniyat yaratadi. Pedal fortepiano texnikasining muhim komponentlaridan hisoblanadi. Pedaldan mohirona foydalanishni o'rgatish ham juda qiyin bo'lib, u ham ob'yektiv, am sub'yektiv shartlarga bog'liqdir. Sub'yektiv shartlar ijrochining eshitish idroki va eshitib nazorat qilish sezgisini rivojlanganligi, madaniy kamoloti, aqliy o'tkirligi va emotsional hissiy idrokini faolligidan iboratdir. Ob'yektiv shartlarga esa ijro etilayotgan cholg'u asbobi, auditoriya (zal)ning akustikasi kabilar kiradi. Asarni bir xil ijro etib bo'lmasligi kabi, pedaldan ham hamma bir xil foydalanishi mumkin emas. Pianinochi doimo ijodiy izlanishda bo'ladi, uning fantaziyasi va tasavvuri ijroni oldindan payqabgina qolmay, haqiqiy tovush jarangini aniqlashtiradi, to'ldiradi, to'g'irlaydi. Ana shu jarayonda qo'l va oyoqlar ajralmas birlikda ishlaydi- qay paytda oyoqni pedalga qo'yish yoki undan olishni, uni bosib turish hajmini, chuqurligini aniq belgilab bo'lmaydi, uni faqat nisbiy holda bajarish mumkin. Shunday bo'lsa-da cholg'u ijrochiligi amalyoti va tajribasida pedaldan foydalanish bo'yicha mantiqiy qonunyatlar, metodik prinsiplar to'plangan, shakillangan, ularga amal qilgan o'quvchilar to'g'ri ishlashni, foydalanishni o'zlashtirishlari mumkin. Masalan, o'ng pedalning qo'llanishi har xildir, lekin uning ishlashi doimo kompleks tarzda bo'ladi. Pedaldan foydalanish fortepianinoni qandaydir “kuylovchi” asboblarga yaqinlashtiradi.

Pedal bir-biridan uzoq joylashgan tovushlar o'rtasida legatoni amalga oshirishda yordam beradi. Pedaldan foydalanish oktavalari, akkordlar va bohqa “sakrashlar”ni bog'lab chalish imkonini beradi. Bunda pedal kuy va jo'rlikni,

baslar va akkordlarni yagona ohangdorlikka birlashtiradi. Bundan tashqari pedal fortepianoni organ yoki orkestr singarijaranglashga majbur qilib, ijroga to'laqonlilik baxsh etadi.

Pedal jaranglashning muayyan tembrlariga erishish imkonini yaratadi. Shuning uchun pedalning har xil darajada bosilishi-to'liq pedal, yarim pedal, chorak pedal muayyan tembr bo'yog'ini shakillantiradi. O'ng pedal ijrochiga fazoviy illyuziyani yaratishda, tovush rang-barang qatlamlarini eshitishda, ohangni tembr harakterini topishda yordam beradi.

Pedaldan foydalanish qonunyalari bir-biriga qarama-qarshi kontrast qonunyatlar bilan izohlanadi. Bunda o'quvchilarda pedalli chalishga ham, pedalsiz chalishga ham hurmatni tarbiyalash lozim. Pedalsiz chalish ko'nikmasi pedaldan foydalanish savadhonligi va mahoratini tarbiyalashning tayanch omillaridir. Pedalsiz jaranglash- fortepianoning asosiy, tabiiy jaranglashi bo'lib, pedalsiz yaxshi jaranglamaydigan asar qiyin, tovushlar ustida ishlashda ham avvalpedalsiz ishlash mohiyatan to'g'ri bo'ladi. Pedaldan foydalanishning har xil ko'rinishlari mavjud. Pedal tovush bilan bir paytda bo'lishi ham, undan kechikishi ham mumkin. Kechikkan pedalni qo'llash juda nozik bajarilishi kerak. Ko'pincha taktning kuchli hissasida yangi uyg'unlik boshlanishi o'rniga bu qism pedalsiz bo'sh qoladi, pedal esa taktning kuchsiz qismida bosiladi. Natijada pedal kerak joyda bo'shliq, keraksiz joyda xiralik vujudga keladi. Qisqa pedallar va tez harakatlarga kelsak, ular tovush bilan bir paytda bajarilishi, ya'ni tovush bilan birga pedal bosilishi va tez bo'shatilishi kerak. Shunday qilib, pedal- doimiy jaranglash emas, balki ayrim hollarda u yoki bu jihatlarni bezaydigan bezakdir.

Bolalarga pedaldan foydalanishni o'rgatish ularning oyog'i pedalga yetadigan bo'lgandan so'ng boshlanadi. Dastlabki mashqlar fortepianoni chalmay turib pedalni bosish va bo'shatishni o'rganish, ya'ni pedal mexanikasini o'zlashtirish kerak. Oyoq bilan pedal tepkisini birlashib turishi, pedal go'yoki oyoqning davomi bo'lishi kerak. Oyoq bilan pedal orasi

zichlashuvi kerak, aks holda oyoq pedalning ustida sirpanib shovqin hosil qiladi. Ijro paytida oyoq pedalda bo'lishi lozim.

Pedal tepkisini bosish yumshoq va shovqinsiz bo'lishi lozim. Mashqlar: ayrim tovushlar va akkordlarni pedalsiz va pedal bilan chalish, so'nayotgan tovushni pedal bilan "tutib qolish", alohida tovushlarni pedal orqali birlashtirish, xromatik gammani kechikkan pedal bilan chalish va.h.k.

Mashqlar jarayonida hosil qilingan malakalar asarni o'rganish davomida mustaxkamlanib borilishi lozim. Har bir asarning pedaldan foydalaniladigan joylarini o'qituvchining o'zi belgilab berishi, bunda uning ishlatilishini, ya'ni uzun-qisqa, o'tkinchi tovushlarda, xromatizmlarda qandau qo'llanilishini tushuntirib berishi lozim.

Quyida sinflarda pedal asosan, ohangdor kuy va raqslarda, marslarda qo'llaniladi. Kechikkan pedal esa romantik pyessalarda qo'llaniladi va bu o'quvchining pedal haqidagi bilishlarini, didi va mahoratini rivojlanishiga yordam beradi.

Yuqori sinflarda ijro etiladigan murakkabroq asarlarda pedaldan foydalanish aniq belgilarga asoslanmaydi. Bu o'rinda har bir asar ijrochi oldiga muayyan badiiy fazifalarni qo'yadi.

Shakli yirik asarlar ustida ishlash: Musiqa maktablari va maktabdan tashqari muassasalardagi fortepiano o'rganuvchilari repertuarida shakli yirik asarlar sifatida sonatala va sonatinalar, konsertlar, variatsion sikllarga o'rin berish ko'zda tutilgan. O'quvchi ta'lim olish davrida turli uslubdagi yirik shakilli asralarni ham o'rganishi lozim bo'ladi.

Yirik shakilli asarlar har biri ijro etishga muayyan talablar qo'yadi. O'quvchilarni ijrochilk malakalarini shakillantirishda sonatalar ayniqsa klassik kompozitorlar (Gaydn, Motsart, Betxoven) sonatalari birinchi o'ringa qo'yiladi. Ta'limning yuqori bosqichida yirik shakilli asarlarda variatsion sikllarni o'rganishga o'tiladi.

Sonata allegrosi bilan dastlabki tanishuvdayoq avvalo uning uch qismli tuzilmasi(ekspozitsiya, rivojlanish, repriza) anglab olinadi, keyin esa asta-sekin asosiy (bosh, yordamchi va yakuniy) partiyalarning sxemasi hamda obrazli tavsifi anglanadi. O'quvchilar sonata allegrosi ustida ishlashda ularning mavzuli materialida ro'y beradigan murakkab bog'lanishlarni idrok etishlariga e'tibor qaratiladi. Mana shu bog'lanishlar ma'lum darajada asarning obrazli tuzilishidagi rivojlanishning kontrastligi, birligi va intinsivligi hodisalarini keltirib chiqaradi.

Odatda sonata vasonatinalarning asosiy (bosh) va yordamchi partiyalari kontrastli bo'ladi, ya'ni ularda qahramonlik mavzusi lirik mavzu bilan almashinadi, xitob-tantanavorlik mavzusi jo'shqin hazil mavzusi bilan almashadi va hakoza. O'quvchilar bir onda yangi musiqiy obrazga to'qnashadi, uni his etish, unga moslashishi kerak, buning uchun esa musiqiy eshitish tasavvurlarining yorqinligi va rang-barangligini egallashidan tashqari o'z vujuduni, idrik etish ko'nikmalarini moslashtira olishlari kerak.

Ijroning metro-ritmik barqarorligiga erishish o'quvchilar uchun ma'lum darajada qiyinchilik tug'diradi. Ritmni his etishni tarbiyalashda quydagi jihatlar muhim o'rin tutadi. Eng avvalo, to'g'ri sur'atni tanlash lozim bo'ladi. O'quvchini sonata va sonatilardagi kontilena qismlarini o'rganishga kirishivu tabiiyroq kechishi uchun intonatsiya ifodali ohang nisbatan sodda uyg'un fon bilan brukadigan faktura sharoiti bo'lishini taqazo etadi.

Variatsiya shakli ustida ishlashda o'quvchiga butun asarning badiiy obrazli to'qimasini o'zgaruvchanlik elementlarini tushunib, aniqlab olishi lozim bo'ladi. Jiddiy variatsiyalarda asosan mavzuning tuzulishi, cho'zimi, sur'ati, tonalligi saqlanadi.

Mumtoz va hozirgi zamonaviy musiqa variatsiyalariga asosan erkin bayon qilish shakli xosdir. Ba'zi variatsiyalar obraz xususiyatiga ko'ra mavzudan ancha uzoq bo'ladiki, ular ko'pincha mazurka, skertso, tokkatolarni tashkil qiladi.

Polifonik asarlar ustida ishlash. Musiq ajrochiligi tarixida mazmun va uslub, janr jihatidan xilma-xil bo'lgan juda ko'p polifonik asarlar yaratilgan. Polifonik asarlarni ijro etish ham ijrochidan qator ko'nikma va malakalarni talab qiladi. Ko'p ovozli to'qimani har bir ovozi o'zining tembr bo'yog'iga, o'z frazirovkasiga, dinamik rivojlanishiga ega bo'ladigan, shu bilan birga asar talqini (ijrosini) yahlitligini saqlagan holda ijro etish shular jumlasidandir. Fortepiano adabiyotida polifonik asarlarni har xil: jo'r ovzli, kontrastli, immitatsiyali turlari mavjud. Havaskor o'rganuvchi va kichik yoshdagi o'quvchilar uchun eng munosibi jo'r ovozli va kontrastli polifoniyalardir. Jo'r ovozli polifoniya yetakchi ovoz va uni to'ldiruvchi hamda bezovchi bir necha jo'r ovozlarga ega bo'lgan asar hisoblanadi. Jo'r ovozlilar ba'zan ohangni bir ozgina variatsiyalaydi.

Polifonik asarlar ustida ishlash o'quvchiga ta'limning quyi bosqichlaridan boshlab olib borilishi to'g'ri bo'ladi. Polifonik asarlar ustida ishlashning muhim tomoni musiqiy to'qimani ko'p qirraliligini idrok etishni faollashtiradi. Keyingi bosqichlarda o'quvchilar uch ovozli immitatsiya polifoniyasi ustida ishlashga, sodda ikki ovozlikdan kichik musiqiy asarlar fugettolar, invensiyalardan uch ovozli, ba'zan to'rt ovozli fugalarni o'rganishga kirishishlari mumkin.

Immitatsiyali polifoniyani o'zlashtirishning qiyinligini sababi, unda ovozlar mustaqil, ahamiyati jihatidan teng, musiqiy tuzulishi aniq farqlanmaydi. Uch ovozlini o'zlashtirishda texnik qiyinchiliklar ham ancha mehnatni talab qiladi. Bu asosan ikki ovozli epizodlarda, bir qo'l partiyalarida ovozni boshqarish, applikator usullarini chalishda namoyon bo'ladi.

Bolalarga dastlab xalq qo'shiqlari asosida yaratilgan kantilena polifoniyasi (Bax-kichik qo'shiqlar, birinchi daftardagi re-minor, mi-minor) namunalarini tavsiya etish mumkin. O'quvchi ohangdor mavzuni yorqin intanatsion tuzulmalarini osonroq idrok etadi. Yuqori sinflarda ancha murakkab ikki ovozli va soddaroq uch ovozli to'qimani o'rganishda kontilenali polifoniyani o'zlashtirishda tayanish kerak bo'ladi.

Dastlabki vazifalardan biri o'quvchining asar shaklini undagi ohang o'ziga xosligini aniqlashdir. Fuga va fugettalar hamda invensiyalarda uch qismli shakl- ekspozitsiya, o'rta qism, reprizalar ko'p bo'ladi. Ba'zan ekspozitsiyadan keyin mavzu hamma ovozlarda takrorlanadi va bu kontrekspozitsiya deb ataladi. O'rta qism esa juda keng va repriza qisqa bo'ladi.

Imitatsiyali polifonik asarni o'rganishning samarali yo'llari qanday bo'ladi?

- O'quvchi asarni tahlil qilish orqali mavzuning obrazli imitatsion xarakterini aniqlab olishi kerak.
- P'yesalarni o'rganishda bas yo'lini, o'rta ovozda uyg'unlikning almashinuvini, ovozlarning ifodaliligini yaxshi eshita olishlari lozim.
- Bolaga ovozlar bo'yicha ishlashni o'rgatish kerak, bunda u har bir ovozni alohida chalishnigina emas, balki aytishni ham bilishi lozim.
- Ikki ovozning uyg'unlashuvini tinglay olishi kerak.
- Ijroda alohida qo'llardan foydalanishni o'rgatish kerak.
- Navbatma-navbat "eshittirib" va "ichda" kuylash o'yini eng yaxshi usullardir. O'quvchi fortepianoda musiqaning bir parchasini ijro etadi va qo'llarini olib, o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha ichki eshitish bilan "chaladi" keyin yana fortepianoda ijro etiladi va h.k.
- Bir ovozni kuylash va chalish.
- Uch ovozlik o'zlashtirilgach, asarni ovozlar bo'yicha o'rganishga e'tibor qaratish lozim. Partiyada ikkita ovoz bir qo'lda bo'lsa, shu bo'lakni ikki qo'lda chalish tavsiya etiladi.
- Ovozlarni har xil tembrlarda chalish ko'nikmasini tarbiyalashga jiddiy qarash kerak. Bu avvalo, sifatli chalish, klaviaturani har xil yo'sinda bosishga bog'liqdir.
- Asarni quruq yodlab olish emas, yodlashdan oldin tonallik-modulyatsion jihatdan tahlil qilish, so'ngra qiyin joylaridan boshlab oz-ozdan o'rganishga kirishish lozim.

- Polifoniya ustida ishlashda xotirani mashq qildirish, bu o'rinda eng yaxshi usul asarning turli joylaridan "tarqoq" holda chalishdir.

O'quvchiarning musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni samaradorligini ta'minlashda texnik va ko'rgazmali vositalardan ham o'rinli foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Musiqqa adabiyotiga oid musiqqa asarlari, ta'limning turli bosqichlari uchun mo'ljallangan pedagogikrepertuar, gramyozuvlar, magnitli va video tasmalar, fonagrammalarda yozilgan. O'quv amaliyoti uchun mo'ljallangan musiqqa asarlarining ko'plari turli ijrochilar talqinlarida yozilgan bo'lib, musiqqa o'qituvchilari mashg'ulotlarda ularni qiyosiy tahlil qilish, ularni sharhlash, ijrochilik uslublari bilan o'quvchilarni tanishtirib borish o'quvchilarni o'z ustida ishlash, kamchiliklarni ,o'z ijrosini nazorat qilish ko'nikma va malakalarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi, ta'lim mazmuni va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Fortepiano sinfidagi ta'lim jarayonida musiqiy asarlarni "yozuv"lari (disk, videotasma, kompyuter, magnitofon va h.k.)dan foydalanish bir qatorda ovozlashtirilgan o'quv qo'llanmalari, elektron darsliklardan foydalanish ham ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi. Ovozlashtirilgan o'quv qo'llanmalari ta'limning ko'rsatmali tushuntirish usuliga asoslangan. Ularda tajribali musiqachi-pedagoglarning asarlar haqidagi sharhi va ijrosiga doir tavsiyalari berilgan.

Forepiano mashg'ulotlarida texnik vositalardan foydalanish o'quvchi idrok etadigan musiqiy-estetik bilish, tushuncha, axborotlar hajmini kengayishiga, gramplastinkalardagi musiqqa asarlarini nazariy va ijrochilik nuqtai-nazaridan tahlil qilish o'quvchini faollashtiradi, mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini o'sishiga olib keladi.

O'quvchilarning musiqiy tafakkurini shakllantirish.Jamiyatimizda yoshlar ta'limi va tarbiyasi oldiga qo'yilayotgan zamonaviy talablarga ko'ra

ta'limning turli bosqichlarida muayyan fanlar doirasidagi bilimlarni o'zlashtirishi bilan cheklanib qolish aslo mumkin emas va ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmani bajarish imkonini bermaydi. Musiqiy ta'limning oliy maqsadi yoshlarda haqiqiy, to'la ma'nodagi musiqa madaniyatini shakillantirishdir. Bu madaniyatning eng muhim omillari musiqiy idrok, musiqiy did, musiqiy ehtiyoj va qiziqishlardan iborat. O'quvchiga musiqa san'atiga to'g'ri, ongli munosabat, hurmat, qadrlash, tushunish, baholash, zamonaviy va mumtoz, folklyor va qardosh xalqlar, jahon xalqlari musiqasi xazinasiga ulkan hissa qo'shgan kompozitorlar ijodiga oid asarlar, murakkab janrlardagi asarlarni qiymatini anglash, farqlash, unga o'z munosabatlarini bildira olish malakalarini shakillanishi- bularning barchasi musiqiy tafakkur tushunchasida mujassamlashadi.

Mana shufaktlar ko'plab mashhur musiqachi pedagoglar, olimlarning ilmiy maqola va tadqiqiy izlanish, chiqishlarida ifodalangan. San'atning jadal rivojlanishi yanada murakkabroq musiqiy obrazlarni, murakkab ifodalash vositalarini vujudga keltirmoqda. Bu esa yangi uslublar, badiiy yo'nalishlar, badiiy eksperimentlarni taqozo etmoqdaki, musiqa san'ati sohasidagi bo'layotgan o'zgarishlar, yangicha talqinlar, janrlar, yo'nalishlar, o'ziga xos ohang, ritmikalar "qorishmalari" uyg'unlashgan, sintezlashgan janrlarga xos asarlar bilan o'quvchi-yoshlarni tanishtirib borish, ular haqida suhbatlar o'tkazish bolalarni musiqiy dunyoqarashi, tafakkurini o'stirishda muhim omillar bo'lib xizmat qiladi.

Musiqa ta'limidagi eng muhim masalalardan yana biri o'quvchida mustaqil ishlash malakalarini shakillantirishdan iboratdir. Mustaqil ish va o'quvchining ijrochilik mahoratini egallash yo'lidagi faoliyati ta'lim jarayonining tarkibiy qismi bo'lishi kerak. O'quvchining mustaqil ishi faqat uy vazifalarini bajarishdan iborat bo'lib qolmasligi, o'quv jarayonidagi barcha ta'limiy-tarbiyaviy ishlar mustaqil ish mazmunida o'z aksini topmog'i shart. Ana shu jarayondagi yo'naltiruvchi omil o'quvchilarda musiqiy eshituv

tasavvurlarini tarkib toptirish va ixtiyoriy tarzda ana shu tasavvurlar bilan ishlashdir. Mazkur tasavvurlar musiqa asarini o'rganish, ijro etish jarayonida emotsional idrok, ta'sirlanish, diqqat, hayol, ijodiy tashabbus kabi boshqa psixik sifatlar bilan bog'liq takomillashadi. Musiqiy tasavvurlar shakillanishi ular bilan ishlay bilish, qiyoslash, taqqoslash, tahlil va sintez qilish kabi aqliy qobiliyatlar rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ularsila mustaqil ishning bo'lishi mumkin emas.

Musiqiy eshitish tasavvurlari musiqa ta'limida ijrochilik malakalarini tarkib topishi uchun asos sifatida ham xizmat qiladi.

Musiqiy eshitish tasavvurlarining harakat usullariga bog'lanishi bilan ijrochilik harakatlarini izlash boshlanadi, bu izlash ijrochiga ijodiy yondoshishni, o'zini-o'zi nazorat qilishni, o'z ijrosini eshita olish va baholay olishni ko'nikma va malakalarini takomillashuviga olib keladi.

Mustaqil faoliyat qanchalik ongli bajarilsa, shunchalik samarali bo'ladi. Cholg'u asbobida ijro etish- ongli faoliyatdir. Har qanday ta'lim singari mustaqil ish fikrlashni, idrokni, tashabbusni va ijodiy tasavvurni talab qiladigan mehnatdir. O'quvchi dars jarayonda u yoki bu vazifani, ijrochilikni qanchalik ongli va maqsadga muvofiq ravishda hal qilsa, uni darsdan tashqari faoliyatidagi ishi ham shuncha samarali bo'ladi.

Mustaqil ishlashni samarali bo'lishi uchun o'quvchi asar mazmuni, karakterini, shunga ko'ra tovush jaranglashini aniq his etgan holda ishlashi, buning uchun avvalo nota matnini asbobda chalmasdan batafsil o'qib chiqish lozim. Bunda sur'at, lad, tonallik, ritm, dinamik belgilar, shtrixlar, applikatura va hokazolarni barchasi asar badiiyligini ta'minlashdagirolini tushunadilar. Bunda ko'rish-eshitish harakati bog'lanishlari musiqiy obrazni tovushlarda ifodalanishiga yordam beradi. Bu esa kerakli darajada sifatli tovushni chiqarish, asar badiiyligi, zarur qiyinchilik tug'diradigan nuqtalarni sifatli ijrosiga erishish uchun zarur ijrochilik usullarini tanlash imkonini yuzaga keltiradi. Asar mazmunini anglashdan ijro etishga, buning uchun kerakli ifodalash vositalarini tanlashga qarab borish musiqaga ongli munosabatni tarbiyalashning yo'lidir.

O'quvchida tahlil va umumlashtirishdan foydalanish ko'nikmasi rivojlantirilmasa, ularning musiqiy tafakkuri mustaqil va faol shakillanmaydi.

O'quvchini darsdan so'ng nimalar ustida qanday ishlash lozimligi to'g'risida kerakli maslahat, ko'rsatmalar berish, buning uchun darsda biror asarning biror qismi misolida ko'rsatish g'oyat muhimdir.

Ma'lumki, pedagogika shaxsni tarbiyalash va unda maxsus ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishga bir-biridan ajralmas yagona jarayon sifatida qaraydi. Musiqa bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchi his etadigan estetik kechinmalar bilan birga cholg'u asbobini chalish ijodiy mustaqillikni, diqqat va intizomni shakllantirishga xizmat qiladi.

Musiqiy ijrochilikni, shu bilan birga musiqiy qobilyatlarni shakllanishi bir-biri bilan bog'liq kechadigan faol, ijodiy jarayon mahsuli bo'lib, bu ko'rib o'tilgan nihoyatda ko'plab omillarga, ish usullari, shakllari, darslarni pedagogik, psixologik, metodik jihatdan tashkil etilishi, muayyan shart-sharoitlarga, o'rnatilgan tartib-intizom, mashg'ulotlarning tizimlilik, dars va darsdan tashqari faoliyatning uyg'unligi, o'qituvchini har bir o'quvchining individual xususiyatlar, qobilyatlari darajasini chuqur o'rganib repertuar tanlash, vazifalarni qo'yishi kabilarga bog'liq.

Man shu jarayonda yana bir muhim jihat borki, bunga ham to'xtalib o'tmaslik aslo mumkin emas. Bu ijrochini ijrochilik malakalari va qobilyatlarini rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida e'tirof etilgan varaqdan chalish, musiqa asarini qismlarga bo'lib o'rganishdir.

Asarni varaqdan chalish orqali o'rganilmagan yangi asarni bastakor (muallif) "istagan", uning badiiy g'oyasi, kechinmalarini ifoda etaoladigan darajada ijro etishga o'rgatishni nazarda tutadi. Varaqdan o'qishning yana bir muhim jihati musiqa asari haqida, uning g'oyasi, musiqiy xususiyatlari to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilinadi.

Varaqdan o'qishni qanday o'rgatish mumkin? Shuni unutmaslik kerakki o'qish- bu malakadir, ya'ni takrorlash natijasida ayrim jihatlari avtomatlashgan

harakatdir. Malakalar amaliyot va maxsus mashqlarni bajarish jarayonida o'zlashtiriladi, hosil bo'ladi, shakillanadi va o'z-o'zidan maxsus qobilyatlarni (musiqa ta'limida esa musiqiy ijrochilik qobilyatlarini izchil harakatda bo'lishini, rivojlanishini) shakillanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Harakatsiz faoliyat, faoliyatsiz harakat, demak hech qanday rivojlanish bo'lmaydi. Shuning uchun harakatni bajarishning to'g'ri, munosib yo'llarini izlash mukammalroq malakani egallashning oqilona shartlaridan biridir.

Varoqdan o'qish malakasining elementlari ta'limning ilk qadamlaridan boshlab o'qituvchi e'tiborida bo'lishi, asta-sekinlik bilan rivojlantirib borilishi lozim. Mazkur malakaning tarkibiy qismlari nota yozuvi savadxonligini o'zlashtirish, ijro etiladigan asarni musiqiy eshitish tasavvurlarida ko'z oldiga keltirish, nota matnini badiiy tuzulishi, ijrochilik xususiyatlarini ongli idrok etishdan iboratdir. "Ko'rish-eshitish-chalish" bog'lanishlari musiqiy axborotlarni ifodalovchi belgi sifatidagi nota yozuvlarini o'qish, chalish (javob harakatining) tezligi va aniqligida ko'rinadi.

Ilmiy tadqiqotlar va musiqavhi ijrochi-pedagoglar ta'kidlariga ko'ra ham varoqdan o'qishni o'rganish uchun ham ko'rish-eshitish-harakat tasavvurlarining birligi hal qiluvchi omil sanaladi.

Varaqdan o'qish malakalri rivojlanishiga doir ayrim elementlar fortepiano chalishga orgatishning birinchi darslaridan tabiiy ravishda boshlanadi. Bola dastlab nota bilan tanishib, uni, ya'ni tovushlarni nota chizig'idagi o'rniga qarab, uni klaviaturada ifodalash davomida unda dastlabki varaqdan o'qishga doir tushuncha, tasavvur vamaalakalr vujudga keladi. O'quvchiga nota tovushlarini chiziqlardagi joylashish o'rniga va uni klaviaturada topishga, sanoqlariga ko'ra ichida eshitib chalish tasavvurlari yordamida izlanib, qidirib chalishga o'rgatish, solfedjio uslubida nota nomlarini aytib, fortepiano klavishlarini chalib kuylash, bir necha nota guruhini nota yozuvida o'qib, so'ngra unga qaramasdan fortepiano chalish, tovushqatordagi

nota (parda)larni dastlabki o'zlashtirish davrida bas va skripka kalitidagi nota joylashuvlarini bir yo'la o'rganishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Nota yozuvlarini elementlari bo'yicha (cho'zimi, klaviaturada o'rni topib) bosqichma-bosqich o'qish uchun oldin 1-2, keyinroq ularni ko'paytirib borish, tovushlar guruhini birini balandlik holatiga nisbatan o'qish, ravon pog'onali harakatni bir harakatda qamrab olish, chiziq va chiziqlar orasidagi notalarni tez o'qish, yuqoriga-pastga ravon, yoddan kuylash, asosiy taxnik formulalarni- gamma, uchtovushlik, arpedjio melizm kabilarni bajarishda ularni vertikal hamda gorizontal holatdagi bog'lanishlarini ongli idrok etib chalish yaxshi yordam beradi.

Nota matnini o'qishdan oldin nota yozuvini eshitib tasavvur etish va uni ritmining harakatlarini, o'lchovini, temp, tuzulishi, dinamikasi, alteratsiya belgilari, takrorlanish va o'zgarish, asosiy aplikaturasi pozitsiyasini, faktura tipini anglash kerak. Nota matnini oldindan ko'z oldiga keltirib o'qish ichki eshitish tasavvurini taqazo etadi. O'qituvchi biror asarni o'rgatar ekan, o'quvchiga eng avvalo, musiqa ohangini asar mavzusiga qiyosiy mos kelishi nuqtai-nazaridan tasavvur etishni, masalan, tabiat (bahor, kuz, yomg'ir yog'ishi, gullar tarovati va h.k) mavzuidagi asarlarda tabiatdagi shunday manzara, ko'rinishni fikran ko'z oldiga keltirishni, zarur kayfiyatni vujudga keltirishga undaydi. Shunga muvofiq tovushlarni hosil qilish tasavvur ifodaviyligini ta'minlaydi.

Musiqiy faoliyatning turli shakillarini qo'llash davomida (solo ijrosi, ansambl ijrosi, jo'rlik ba fikran tasavvur etib) chalishni uyg'unlashuvi natijasida varaqdan ijro etish malakasi shakillanadi. Umuman varaqdan chalish malakasining muvaffaqiyatli shakillanishi bolani umummusiqiy kamolotiga, eshitish ijodkorligini rivojlanishiga, fortepiano chalish texnikasini takomillashuviga samarali ta'sir etadi.

Fortepiano chalishni o'rganishda texnika juda katta ahamiyatga ega. Texnika- bu har xil mashqlarni oson, yengil, chaqqon, ifodali ijro etish

malakasidir. Ular ijroda barcha qiyinchiliklarni oson o'zlashtirish imkonini beradi. Mashqlarni tanlashda va qo'llashda o'quvchilar oldiga sof texnik vazifalardan tashqari muayyan badiiy maqsad ham qo'yiladi. Mashqlarni o'zlashtirishning asosida musiqiy eshitish tasavvurlarini rivojlantirish, tasavvurlarni harakat tasavvurlari va o'z navbatida ijrochilik qobiliyatlarini takomillashtirish bilan bog'lanishiga erishiladi. Mashqlar dastlab asarda duch kelinadigan murakkabliklarni yengib o'tish maqsadida qo'llaniladi va bu asta-sekin o'quvchiga o'z diqqatini nota matnidan erkin harakat bilan tovush (ohang) sifatini kuzatib ijro etishga xizmat qiladi.

Ta'limning dastlabki davrida o'quvchilarga anchagina mashqlarni o'zlashtirish tavsiya etiladi. Bu mashqlar avvalo, klaviatura ustida barmoqlarni yurgazish, qo'lni keyingi entirvallarga, akkordlarga ko'chirishdan iborat bo'lib, barmoqlar, pedal harakatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Birinchi barmoqni qo'yish, barmoqlarni bitta klavish ustida tovushsiz almashtirish, qo'llar pozitsiyasi chegarasida va melizmlarda legato mashqlaridan foydalanish lozim. O'quvchiga tavsiya etiladigan dasturda (repertuar) mazsus mualliflik mashqlari ham o'rin olishi kerak. Masalan Y.Gnesinning "fortepiano texnikasining har xil turlariga tayyorgarlik mashqlari", K.Chernining "sakkiz aktli 160 mashq"i kabilar shular jumlasidandir. Turli qiyinchiliklarni o'z ichiga olgan va fortepiano adabiyotlarida mashqlar hisoblanuvchi har xil gammalar chalish ham texnik mahoratni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Msollar:

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

II-BOB bo'yicha xulosalar:

Biz o'z tadqiqotlarimizni olib borish jarayonida, shuningdek cholg'u asbobi-fortepiano cholg'usi bo'yicha olib boriladigan mashg'ulotlar jarayonida shu narsaga amin bo'ldikki, musiqa olamiga katta havas, muxabbat bilan kelgan bolalarni ana shu havas va intilishlarini to'g'iri yo'lga solish, qo'llab-quvvatlash, cholg'u asbobida biror bir asarni o'rganish natijasida vujudga keladigan quvonchini barqaror iziqish, ko'nikma va malakalarga aylanishiga asosiy e'tibor qaratgan holda ish tutishni taqazo etishini doimiy e'tiborda tutish pedagog-o'qituvchi, rahbar faoliyatining bosh va asosiy maqsadi, vazifasi bo'lishi lozim. Aks holda o'quvchini musiqa san'atiga, cholg'u asbobini chalishga o'rgatish bo'yicha barcha o'quv-tarbiyaviy ishlar behuda ketishi, faoliyat "o'tkinchi" mazmun kasb etishi, o'quvchilarni bu faoliyatini samarali kechishiga xizmat qiluvchi eng asosiy omillar- musiqiy qobiliyatlar ham zarur darajada shakillanmay qolib ketishi mumkin.

Cholg'u ijrochiligi faoliyatida o'quvchilarni umummusiqiy vaijrochilik qobiliyatlarini shakillantira borish juda katta va turli ish usul, shakl, vositalarini qamrab olgan uzluksiz va aniq maqsadni ko'zlagan o'quv faoliyatini talab qiladiki, biz ishimizning ikkinchi bobida ular haqida baholi qudrat to'xtalib o'tdik. Ularning mantiqiy tahlili shundan dalolat beradiki bu o'rinda qo'yiladigan omillar yetakchi o'rin tutadi:

- Musiqa asbobida chalishda eng avvalo undan ko'zlangan maqsadni o'quvchi tomonidan yaxshi tushunib olishiga erishish;
- Musiqa chalishga ongli munosabat, zarur ko'nikmani hosil qilish;
- Muayyan tartib, qoida, intizomli bo'lishga musiqiy faoliyatga qiziqish va ta'lim jarayonida asarlar o'rganish ustidagi "mehnat" shunchaki, o'tkinchi ho'yu-havas emas, barqaror qiziqish va faoliyat sifatida mazmun kasb etishi;
- O'quvchida "avtomatik" ravishda qo'yilgan talab va vazifalarni bajarishni emas, ijodiy sifatlarni, mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish musiqiy tafakkurni rivojlantirishga e'tibor qaratish;

- Fortepiano chalish “texnikasi”ni egallashga yordam beradigan vositalar, usullardan keng foydalanish;
- Nota matnini o’qish, tushunib olish, ilk tahlil qilish malakalari ustida ishlash, ichki eshitish, g’oyaviy-badiiy mazmuni badiiy idrok etib, his etib chalishga o’rgatish;
- Eshitis tasavvurlari va o’z-o’zini nazorat qilish, tovush hosil qilish usullari ustida muntazam ish olib borish;
- Ifodali ijro ustida ishlash, ijroda badiiy obraz mohiyatini ifoda etishga erishish;
- O’quvchida ritm hissiyotini tarbiyalash;
- Fortepiano texnikasining murakkab komponentlaridan bo’lmish pedaldan foydalanish mahorati ustida ishlash;
- Ta’lim jarayonini “oddiydan murakkabga” ta’mayili asosida qurish, mashg’ulotlarning ketama-ketligi bosqichlarida oddiy p’yesalar, mashqlardan yirik shakldagi asarlarni o’zlashtirishga o’tish, polifonik asarlar o’rganish;
- O’z o’rnida ta’lim sifati, mazmuni, samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi texnik va ko’rgazmali vositalardan unumli foydalanish;
- O’quvchida nota o’qish, varaqdan o’qish malakalarini muttasil rivojlantirib borish;
- O’quvchilarni uy vazifalarini, ijodiy topshiriqlarini bajarishlarini muntazam nazorat qilib borish, hato va kamchiliklarni birgalikda hal qilishga odatlantirish lozim;
- Eng muhimi o’quvchida mustaqil ishlashga rag’bat uyg’otish, mustaqil ishlash ko’nikmalarini tarbiyalash zarur.

Bularning barchasi oqibat natijada ta’lim jarayonida kutilgan maqsadga erishish imkonini beradi, o’quvchilarning ijrochilik qobiliyatlari rivojlanishi va takomillashib borishini ta’minlaydi.

III BOB: Musiqa asari ustida ishlash jarayonida o'quvchilarni ijrochilik qobiliyatlarini shakillantirish texnologiyasi.

3.1. Musiqa asari ustida ishlashning amaliy tomonlari.

Fortepiano chalishga o'rgatish juda qiyin va murakkab ijodiy faoliyatni, shu bilan birga o'qituvchidan o'quvchiga bevosita musiqa asarlarini o'rgatishdan oldin uni ushbu faoliyatga tayyorlashni talab qiladi. Fortepiano cholg'usi bo'yicha pedagogik faoliyatning didaktik va metodik jihatlari ustida izlanish olib borgan ko'plab pedagog-olimlar fortepiano cholg'u ijrochiligiga o'rgatishning qiyin va murakkabligini, uning texnikasini o'zlashtirish ko'p mehnat talab qilinishini hamda bu jarayon bolalar diqqatini musiqani o'zidan (mazmuni, badiiyligi), uni tushunish, to'laqonli idrok etishdan, natijada asarni his etishga halaqit berishini ta'kidlashadi va asar o'rganishga kirishishdan oldin fortepiano sinfida juz'iy musiqa asboblari bilan shug'ullanishni tavsiya etishadi. Bunda eng oddiy musiqa asboblari: buben, tayoqchalar, uchburchak, shiqildoq, yog'och qoshiqlardan, shart-sharoitga qarab chapak chalish, tizzalarga, asboblarning qopqoqlariga urish kabilardan foydalanish ham mumkin. Bunda bolalarni muayyan musiqiy asarni eshitish, unga jo'r bo'lish, ansamblda chalish, fortepiano bilan birgalikda chalish, kuyga solo bo'lib jo'r bo'lish, mustaqil ishlash, dinamik-eshitish ko'nikma, malaka va qobiliyatlari shakillanadi. Shundan keyin muayyan shart-sharoit va bolalarni ijrochilik imkoniyatlariga binoan ma'lum muddatda, deylik ikki yoki uch oylik muddatda bolalarni fortepiano cholg'usi bilan dastlabki muloqotlarga kirishishga yordam beruvchi faoliyat bilan shug'ullantirish lozim. Bunda har xil cholg'u asboblarni chalish bilan tanishtirish, yakka tartibdagi mashg'ulotlarni jamoa bo'lib eshitish bilan qo'shib olib borish mumkin.

Juz'iy musiqa asboblari bilan ijodiy shug'ullanish-cholg'u asbobi bilan tanishish, badiha, ijodiy topshiriqlarni mustaqil bajarish kabi shakillarda bo'lishi mumkin.

Aks-sado mashqi bolalarni ritmik kanonlarni ifodalashga tayyorlaydi.

Keyingi bosqichdagi mashqlar jo'rligni cholg'ulashtirish tarzida bo'lishi mumkin. Bunda cholg'ulashtirish tovushlar uzunligiga bog'liqligini eng yirik uzunlik (o nota) uchburchakda, yarim uzunlik ()-bubinda, undan kichik uzunlik- barabanda, shiqildoqda va hokozalarda bajariladi.

Biz ham o'z amaliyotimizda, ya'ni tadqiqot ob'yekti qilib tanlangan muassasalarda fortepiano sinfiga qabul qilingan o'quvchilar bilan ishlash hamda bolalarni cholg'u ijrochilik qobiliyatlarini ham ijrochilik malakalarini shakillantirishda o'qituvchilarga o'zimizning ilmiy adabiyotlarda o'rgangan, tajribali pedagoglar tajribalari va o'zimizning shaxsiy ish faoliyatimizda sinab ko'rilgan ish uslublarini eng muhim deb hisoblaganlarimizni tavsiya etdik va kuzatib bordik. Tavsiya etilgan metodikamiz mazmunida yana quydagi ish tartiblari (uslubiyat)ga jiddiy e'tibor qaratildi.

- bir tovushni har xil qilib chalish- juda uzun nota qilib chalish, eng uzun notani uchdan bir, to'rtidan bir miqdorida chalish, batamom tingunicha tutib turish, tovushni muloyim, shaxdam ifodaviylikda chalish;

-forteplanoda kuylash, bir tovushni ohangdor ifodali ijro qilish (bu tembr tasavvurini hamda tovushni qanday chalish usulini tanlash malakalarini rivojlantiradi.);

- kichik kuyning bir jumlasini chalish- bunda tovush harakterini anglashga o'rgatish asosiy maqsad hisoblanadi;

- nota yozuviga o'tish- buni shu davrgacha o'zlashtirilgan tovush materialini (tushuncha, tovushni harakterini, ifodaviyligini his etish) nota belgilarining klavishlarga bog'liqligisiz yozish deb tushunish;

Bu usul quydagicha amalga oshiriladi. O'qituvchi dastlab o'quvchi bilan birga notaning barcha belgilari orqali (applekatura, dinamika, shtrixlar) o'quvchi chalgan va yaxshi o'zlashtirgan kuyning parchasini yozadi. Bunda chiziqslarning ahamiyati tushuntiriladi, ritmik ifoda tahlil qilinadi va yoziladi, pauzalar tushuntiriladi. Bunday holda o'quvchi nota yozuvini mavhum narsa emas, balki o'zi ijro etgan musiqani qayd qilinishi deb tushunishi lozim.

-Hayolan tasavvur va tahlil etgan kuylarni chalishga urinish- bunda kuyni ijro etish uchun tegishli usullarni tanlashga kirishiladi, kuyni harakteri bo'yicha to'ri, tovushlari bo'yicha hatolar bilan chalish mumkin. O'qituvchi savol-javob orqali xatoning sabablarini o'quvchiga tushuntiradi. Xato musiqiy eshitish tasavvuri bilan bog'liq bo'lsa uni yaxshiroq tasavvur etish bo'yicha tushunchalar beradi, xato sababi chalish xarakterida bo'lsa yaxshi, munosib harakterlarni tanlashga (solishtirish, taqqoslash orqali) ko'maklashadi.

- Notaga qarab chalish. U tovush o'rni, cho'zimi, dinamikasi, harakterini tahlil qilib o'qish orqali amalga oshiriladi. Bu ishning metodikasi quydagicha: o'quvchiga bir kuy parchasi (qismi) beriladi, o'quvchi kuyning notasini sekin o'qishi, har bir notani oldingisi bilan taqqoslashi, takrorlashi, applikatura va shtirlarni tushunib olishi, o'qishni yana takrorlab, kuyni ijro etish uchun kerakli harakatlarni ko'z oldiga keltirishi kerak.

- Musiqa asari ustida ishlash bir necha bosqichlarga bo'lib chiqiladi:

Birinchi bosqich. Nota matni bilan (asar nota yozuvi) dastlabki tanishish, o'qish, tushunib olish, ilk tahlil qilish. Bunda o'quvchi kuyning harakterini his etishi, mavzu mazmunini anglab (idrok) olishi, undagi qiyin, o'ziga xos jihatlarni aniqlashi zarur. Bu faoliyatda fortepiano cholg'usida dastlabki tovushlarni varaqdan o'qish bilan hosil qilish, tempni sekinlatib o'rganish, to'ztab-to'xtab chalish, ko'zni tez nota ustida yuritishga ko'niktirish,

klavishlarni tez ilg'ash ko'nikmasi ustida ishlash muhim hisoblanadi. Bu jarayon asarlar hajmi, oddiy-murakkabligi, tez eslab qolinishi harakteri kabi xususiyatlariga ko'ra murakkablashib, mukammallashib borishi lozim.

Nisbatan yirik asarlarni o'rganishda kuy qismlarining tizimini, ularning bir-biriga muvofiqligiga, har qismining o'rni, mavzuning tugal uyg'unligi, kontrast holatlari, oraliq va yordamchi tuzulishlariga e'tibor qaratiladi.

Ikkinchi bosqich. Tovushlarni kerakli sifatini topish, qulayroq applikaturani aniqlash-qo'llash, ohangni ifodali o'zlashtirish, texnik qiyinchiliklarni aniqlash, ular ustida ishlash-mashq qilish, pedaldan foydalanish kabilar ustida ish olib boriladi. Bu jarayon ancha davomli bo'lib, ayrim qismlarni ko'p takrorlash, hatto alohida taktlarni qayta takrorlash bilan bog'liq kechadi. Takrorlash ijrochilikni mustaxkamlash (kamchiliklarni bartaraf etish) va uzluksiz takomillashtirib borishga imkon yaratadi.

Qismlar bo'yicha ishlash kuyni yaxlit o'rganish va chalishg halqaqit bermaydi. Bunda kuyni boshidan oxirigacha tez-tez takrorlab borishi zarur. Asar zarur darajada o'rganilgach, o'zlashtirilgan (qismlar bo'yicha) keyin umumiy to'qimaga biriktirib chalishga o'tiladi.

Qismlar bo'yicha ishlash asarni katta-kichikligiga (taktlar soni) bog'liq tashkil etiladi. Qiyin joylar ajratilib, alohida o'rganiladi. Asta-sekin qismlar-bo'linishlar yiriklashtirib boriladi. Ikkinchi bosqichda tovush chiqarish usullari, barmoqlarni yuritish, tovushlarning ohangdoshligi, frazirovka kabilar ustida ham doimiy ishlar olib boriladi. Ifodalash vositalari va usullarini izlash esa doimiy ravishda badiiy obrazning eng yaxshi talqinini topishga qaratilishi, asar mazmunini ohangdorligi, tushunarligi hamda emotsional ta'sirchanligi bilan belgilanishi doimiy e'tiborda bo'lishi lozim.

Uchinchi bosqich. Bu bosqichda o'rganiladigan asarning musiqiy-badiiy g'oyasini uzil-kesil aniqlash, yoqimli, ta'sirchan, ifodalilik vazifalarini hal qilish, xususiy talqinni vujudga keltirish asosiy maqsad va vazifa hisoblanadi. Asar bo'laklar bo'yicha o'rganilgach, yaxlit ijroni yaratish, uni o'z tempida

oxirigacha badiiy to'laqonli ijro etiladi. Musiqa doimiy takomillashib, har bir ijrochi talqinida o'ziga xos badiiy tus kasb etadigan san'at ekanligi sababli o'quvchining diqqati qismlarning sur'ati va dinamik jihatda mutanosibligiga, eng muhim, yuqori pardalarni ijrosiga, sur'atdan agogik og'ishmalarga va dastlabki sur'atga qaytishlarga, pauzalarni aniq ijro etilishi va hakoazolarga qaratiladi.

O'quvchi asarni ijro etish rejasini hayolida aniq tasavvur etishi, frazalarning, jumlar va qismlarning tuzulishini ongli ravishda ko'ra olishi, alohida qismlardagi va shuningdek, butun asardagi intonatsiya nuqtalarini, kulminatsiyalarni ichdan his etib ijro etishi lozim.

Manashu jarayonda o'quvchining o'z ijrosini eshitishi, uni baxolashi, chalishda yo'l qo'ygan hato va kamchiliklarini sabablarini sezib, uni bartaraf etish yo'llari haqida tushunchalarga ega bo'lishi g'oyat muhimdir.

Musiqa asari ustida (asarni o'rganish, badiiy ijro etish) ishlashda yana juda ko'plab vazifalar mavjud bo'lib, bular cholg'u sozi bo'yicha mashg'ulotlarni uzluksiz murakkablashib boruvchi jarayonida o'zlashtirib boriladi. Bular: ligato, ligani chalish, shtrixlarni non ligatoni, stakkatoni, portomento, fermato, sforsando (*sf*), uziladiga va uzilmaydigan fermatoni ifodalash, krishendo (<), dimenuendo (>)larni asar xarakteriga mos ifodalash ayrim tuzilishlar orasida "nafas" olish yoki sezuralarni, pauzalarni to'g'ri bajarish g'oyat muhimdir.

Musiqachilar orasida qo'llarning "nafas olishi" degan ibora keng tarqalgan. Mahorati ancha shakillangan o'quvchilar bilan mana shu elementni yaxshi o'zlashtirish ustida ish olib borish faqat o'qiyuvchini tushuntirishi, shaxsiy namunasi orqali kechishi yaxshi samara beradi.

Nyuanslar ustida, metroritm ustida ishlash ko'p qirrali uslubiy faoliyatni talab qiladi. Tabiiyki, jonli musiqa ijrosi hech qachon nota yozuvidagi arifmetik nisbatlarga to'la mos bo'lishi mumkin emas. Chunki, nota yozuvi faqat sxema bo'lib, ijro ijrochi-cholg'uchining hissiyot va kechinmalari bilan boyigan,

sug'orilgan, mujassamlashgan taqdirda o'zining mukammal jozibasi, harakterini bera oladi. Shuning uchun ham notalar faqat belgilar tizimi bo'lib, uni asardagi bastakor yaratgan badiiy obrazni tushinish asosida, har bir ijrochining musiqiy tafakkuri, mahorati, badiiy didi, tajribasiga ko'ra talqin etishga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Ritm hissini tarbiyalashda quydagi jihatlar e'tiborda tutiladi:

- Nota matnidagi ritm yozuvlarini aniq o'qish uchun og'zaki va ichda sanash;
- Punktir ritmda 2- i ni qoshib tezroq sanash;
- Taktning hissasi juft va toq miqdordagi cho'zimlarga bo'linadigan hollarda 2,3,4,5,6 hissalarini bitta sanoq birligiga joylashishiga erishish;
- Punktirli birikmalarni ijro etishda avvalo osonroq bo'lgan ikkini uchga birikishi o'zlashtirish kerak;
- Ritm ustida ishlashda dirijorlik qilish asarni jonli nafas olishini his etishda yaxshi vositadir;
- Sur'atni birligini his etishga o'rgatish bunda to'g'ri sur'atni belgilay olish, shu o'rinda asarni oxirigacha bir sur'atda ijro etish uchun sanash birligini boshlanishi bo'yicha ifodalash yaxshi uslubdir;
- Sur'atni bir tekis ushlashda o'quvchilar eng ko'p yo'l qo'yadigan hato- tovush kuchayganida ijroni tezlashtirish, tovush pasayganida sekinlashtirishdir.
- Pauzalarga hurmatni tarbiyalash alohida diqqatni taqazo etadi. O'quvchilar ko'pincha qisqa va uzun pauzalarni ifodaviylik ahamiyatini anglamaydilar;

Ishimizning oldingi bobida aytib o'tilganidek mashg'ulotlarda fortepiano chalishni o'rgatish va asar ustida ishlashd ham pedaldan foydalanishga alohiida e'tibor berish lozim. Bu o'rinda fortepiano chalishni o'rganish amaliyotidagi to'plangan tajribalarga tayanish kifoya qiladi.

Shakli yirik asarlar ustida ishlash o'quvchilarni fortepiano ijrochiligiga tayyorlashda muhim bosqichdir. Ma'lumki, musiqa maktablari repertuarlarida shakli yirik asarlar sifatida sonata va sonatinalar, variatsion sikllar berilgan. Yirik shakilli janrlarning har biri ijrochiga muayyan talablar qo'yadi.

O'quvchilarga sonatina asarlarini o'rgatishda Motsart, Betxoven, Gaydn kabi mashhur kompozitorlar asarlariga murojaat qilishi birinchi o'ringa qo'yiladi. Bularning asarlari keng musiqiy fikrlashning shakillanishiga asos bo'ladi.

Sonata allegrosi bilan ishlashda avval uning uch qismli tuzilishi (ekspozitsiya, rivojlanish, repriza) o'zlashtiriladi, keyin asta-sekin asosiy (bosh, yordamchi, yakunlovchi) partiyalarning obrazli harakterini o'zlashtirishga (ifodalashga) kirishiladi. Sonatalarni chalishda ijroni metroritmik birligiga erishish, pauzalar mazmunli ifodalash, sonata va sonatinalardagi kontilena qismlarini ustida ishlashda ohang yo'lini yagona harakatda olib borish samarali usuldir.

Fortepiano uchun yozilgan musiqalarning ko'pi polifonikdir. Shuning uchun polifonik asarlar ustida ishlashda ham biz jahon fortepiano ijrochiligida shakillangan metodikalarga ijodiy yondoshgan holda ish tutdik:

-quyi sinflardan o'quvchilarga turli janrdagi polifonik asarlarini borish;

-ko'proq xalq qo'shiqlari asosida yaratilgan kanonlar, fugettalar, invensiyalarda ikki ovozlikni eshitishga, idrok etishga tayyorlash e'tiborda tutiladi;

-Bax asarlari namunalari orqali uch ovozli kontilena polifoniyasi bilan tanishtirib boriladi;

O'quvchilarga asar shaklini, ohang materiasini aniqlash vazifalari berib borildi;

-fuga, fugettalar, invensiyalarda ko'p uchraydigan uch qismli shakl-ekspozitsiya, o'rta va reprizali qismlarni tushinish, ba'zan uchraydigan

ekspozitsiyadan keyin mavzuni takrorlanishlarini, ohangni o'xshash va farqli elementlarinitushunib olishlariga e'tibor berildi.

-polifonik asarlarni ijro etish professional tayyorgarlikni talab qiladi, shuning uchun o'quvchilarni fortepiano ijrochiligini keyingi bosqichlariga tayyorlashda polifonik asarlar bilan ishlash, o'quvchilarni polifonik asarlarni tinglashi, tushunishi, anglashi ko'nikma va malakalarini shakillantirib borish har bir pedagog-o'qituvchining doimiy vazifalaridan sanalishi shart.

3.2. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish va o'quvchilarni ijodiy ijrochilik faoliyatiga tayyorlash amaliyotini samaradorligi.

Amaliy tajribalarimiz tanlangan obyektlarda ikki bosqichda alohida-alohida holda olib boriladi:

I-bosqich bu- fortepiano cholg'usini o'rganishni dastlabki "boshlang'ich davri" va II-bosqich yuqori sinf, guruhlarda o'qiydigan o'quvchilari bilan olib boriladi. Har ikki bosqichda ham amaliy tajribalar bir yillik talim jarayonida amalga oshiriladi.

Guruhdagi tajriba sinov ishlari tadqiqotida ta'kidlab o'tilgan ta'limning dastlabki bosqichi uchun muvofiq deb topilgan metodika asosida olib borildi. Bunda asosan o'quvchilarni musiqani eshitish, anglashi, esda saqlab qolishi, juz'iy asboblarni bilan ishlash, tovush ustida ishlash, nota o'qish, varoqdan o'qish, metro-ritmni his qilish, pedaldan foydalanish, applikatura, shtrixlarni, pauzalarni va turli dinamik belgilar, nyuanslarni ohangda, ifodalash, qo'l, barmoqlarni yurgizish, ijro texnikasi kabilarga asosiy diqqat e'tibor qaratishdir.

II-bosqich guruhlari bilan olib borilgan tajribalar jarayonida o'quvchilarni ijrochilik ko'nikma va malakalari ancha shakillanib ulgurganligini hisobga olgan holda ular bilan olib boriladigan ishlarda jahon fortepiano ijrochiligi amaliyotida to'plangan ish usul, shakl, vositalari-metodika va mavjud sharoitdagi pedagogik shart-sharoit, imkoniyatlar, bolalarni musiqiy tayyorgarliklari, ta'limning oldingi bosqichida egallagan bilim, ko'nikmalari,

psixologik tayyorgarligi kabi omillarga tayangan holda va ularga ijodiy yondoshgan holda ish tutdik. Bu bosqichda asosan o'quvchilarni shakli yirik asarlar, polifonik asarlar variatsion asarlar, sonata, sonatina, fugetta, invensiyalar shuningdek zamonaviy kompozitorlarning fortepiano uchun yozgan asarlari, cholg'u ijrochiligiga moslashtirilgan o'zbek xalq kuylari, shuningdek, darsdan tashqari faoliyatda mustaqil o'rganish (pedagog kuzatuvda) uchun tavsiya etiladigan o'quvchilar qiziqish va hoxishiga ko'ra tanlanadigan asarlar bilan ishlash, shu jarayonda o'quvchilarni ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish kabilarga yetakchi e'tibor qaratildi.

Tanlangan obyektlardagi va qolaversa ko'plab musiqa va san'at maktablari, maktabdan tashqari musiqiy ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilgan fortepiano cholg'usi guruhlarida o'quvchilar bilan ishlash amaliyotini kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, bu dargohlarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-musiqa rahbarlarining deyarli barchasi maxsus ma'lumotli (asosan san'at kollejlari fortepiano cholg'u ijrochiligi bo'yicha tugatgan) mutaxassislar bo'lsa-da ularni metodik jihatdan tayyorgarliklari biz kutgan darajada emasligi ochig'ini aytganda ular faoliyatida asarlar bilan ishlash yetakchi o'rin tutishi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun ham biz ta'lim muassasalari ma'muriyati hamda o'qituvchilar bilan kelishgan holda bizning tajriba-sinov ishlarimiz uchun tanlangan sinf (guruh)larda biz tomonimizdan tavsiya etilgan metodika asosida mashg'ulotlarni olib borilishiga ko'ra va mashg'ulotlarni doimiy ravishda nazoratimiz ostida kuzatib borishga muvaffaq bo'ldik.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha reja va dasturimizda ko'zda tutilgan vazifalarga ko'ra tajriba va nazorat guruhlarida ta'lim jarayoni bir-biridan farqli metodik tizim asosida olib borildi. Nazorat guruhlarida mashg'ulotlar shu davrgacha o'qituvchilar tomonidan qo'llanib kelingan tizim va metodlar asosida davom ettirilgan holda, tajriba guruhlarida esa biz tomonimizdan tavsiya etilgan (ishimizning oldingi bandlarida bayon etilgan) metodika asosida olib borildi.

Tadqiqotimizning tajriba-sinov ishlari rejasiga ko'ra u uch bosqichda amalga oshirildi.

1.Tajriba –sinov ishlarini tashkil etishga yo'naltirilgan tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichda tajriba-sinov ishlarida qatnashuvchi sinflar (guruhlar), ta'lim muassasalari, o'quvchilar ro'yxati, o'qituvchilar, muddatlar belgilab olindi.

- tajriba-sinov ishlari olib borilayotgan ta'lim muassasalarining o'quv va metodik hujjatlari, ya'ni me'yoriy va dasturiy hijjatlar-DTS, o'quv reja, dasturi, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, talim jarayoning mazmuni tahlil qilindi.

- tajriba ishlari va tajriba guruhida mashg'ulotlarni o'tkazish mazmuni va mohiyati dars beruvchi o'qituvchi-rahbarlar va ma'lum darajada o'quvchilarga ham tushuntirildi.

2.Tajriba-sinov ishlarini shakllantiruvchi bosqichi. Bu bosqichda cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida o'quvchilarni ijrochilik o'nikma va malakalarini shakllantirishda samarali natijaga erishish imkonini berishi kutilgan, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodika o'quv amaliyotida sinab ko'rildi. Tajribalarni o'tkazish jarayonida natijalar har uch oylik muddatda tahlil qilinib borildi, zarur o'zgartirishlar kiritilib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar tuzatilib, umumlashtirilib borildi.

3.Yakunlovchi bosqich. Tajriba va nazorat guruhlarida erishilgan natijalarni taqqoslash, qiyoslash, maxsus metodika asosida qo'llanilgan metodikaning samaradorligini aniqlash va asoslash uchun natijalar matematik-statistik tahlil etildi va xulosalar chiqarildi.

Tajriba sinov ishlari jarayonida biz ilmiy tadqiqotimizning maqsad, vazifalarini amalga oshirish, ilgari surilgan ilmiy farazlarimizning qanchalik haqqoniyligini sinab ko'rish maqsadida tanlangan obyektlardagi o'qituvchi murabbiylar, o'quvchilar, ularning ota-onalari bilan suhbatlar, yozma so'rovlar o'tkazildi.

O'quvchilarni ijrochilik qobilyatlarini shakillantirish dars va darsdan tashqari faoliyatlar uyg'unligida tashkil etilganligi tadqiqot maqsadiga ko'ra yo'lga qo'yilgan ta'limning aniq, ilmiy asosli tizimga asoslanganligini ko'rsatdi.

1.Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim muassasalaridagi cholg'u mashg'ulotlari jarayonini tahlil qilish.

2.Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish imkonini beruvchi ish usul, vositalarini aniqlash va sinab ko'rish.

3.Bu jarayonda o'qituvchilarni kasbiy tayyorgarligi, metodik, pedagogik mahorati, o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi o'rnini aniqlash.

4.Ta'lim muassasalaridagi pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash.

5.O'quvchilarni ijrochilik ko'nikma, malaka va qobilyatlarni rivojlanganlik darajasini aniqlovchi mezonlarni ishlab chiqish.

6.O'quvchilarni ijrochilik qobilyatlarini shakillantirish borasidagi tajriba-sinov ishlari natijalarini umumlashtirish, natijalarning ishonchligini matematik-statistik matod (Styudent metodi) yordamida tahlil etish.

7.Umumta'lim maktablari, maktabdan tashqari musiqa va san'at muassasalaridagi musiqa sohalari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Pedagogik tajriba Samarqand shahridagi 1-son bolalar musiqa va san'at maktabi, 1-son Pedagogika kollejida, Tayloq tumanidagi 56-umumta'lim maktablarida 2014-2015 yillarda olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida qo'llanilgan metodika natijalariga ko'ra o'quvchilarni ijrochilik qobilyatlarinishakllanganlik darajalari 3 ta darajalari bilan belgilanishi lozim deb topildi.

Cholg'u mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijrochilik qobilyatlarini shakllanganlik darajalari

Yuqori	O'rta	Past
Baholash mezonlari	Baholash mezonlari	Baholash mezonlari
1.	1.	1.
2.	2.	2.
3.	3.	3.
4.	4.	4.
5.	5.	5.
6.	6.	6.
7.	7.	7.

Ijrochilik qobilyatlarini shakllanganlik darajalarini uch balli tizimdan foydalanildi.

Talab (me'zon) bandlari bo'yicha o'quvchilarni ijrochilik sifati to'liq, kutilgan darajada, "2" raqami, qisman shakllangan, qoniqarli baholanishga loyiq deb hisoblanganlari "1" bilan va o'zgarish juda past, sifat o'sishi sust, ular ijrolari kutilganidek emas deb topilganlar "0" ball bilan baholandi. Ijrochilik qobilyatini shakllanganligini uni belgilovchi uchta darajasi bo'yicha aniqlashda har darajadagi 7 tadan, jami 21 ta talabni hisobga olganda, uning bajarilishi

uchun “2” balldan $21 \cdot 2 = 42$ ballga ega bo'lishi kerak va bu 100% (foiz)ga to'g'ri keladi.

Agar ushbu talab 86% (foiz) va undan ortiq bo'lsa- yuqori darajaga, 71% dan 85% gacha o'rta (yaxshi) darajaga, 55% dan 70% gacha bo'lsa past darajaga loyiq deb topilishi ma'qul ko'rildi.

2-jadva

Tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan o'quvchilar soni (2014-2015 yillarda)

Ta'lim muassasalari nomi	2014 yil		2015 yil	
	Boshlang'ich sinflar	Yuqori sinflar	Boshlang'ich sinflar	Yuqori sinflar
Samarqand shahar 1-son Pedagogika kolleji	15	12	15	12
Samarqand shahar 1-son BMSM	15	10	15	10
Tayloq tumanidagi 56-umumiy o'rta ta'lim maktabi	12	10	13	10
Jami	42	32	43	32

Tajriba-sinov jarayonida o'tkazilgan sinovlar natijalari tajriba boshi va oxiridagi belgilangan uchta daraja bo'yicha quydagicha ko'rinishlarda namoyon bo'ldi.

3-jadval.

Tajriba boshida

Talim muassasalari nomi	Guruhlar (tajriba-nazorat)	Sinflar	O'quvchilar soni	Darajalar		
				Yuqori	O'rta	Past
Samarqand shahar 1-son Pedagogika kolleji	Tajriba	Bosh.sinf	8	1	4	3
		Yuq.sinf	6	-	4	2
Samarqand shahar 1-son BMSM	Nazorat	Bosh.sinf	7	1	5	1
		Yuq.sinf	6	-	4	2
Tayloq tumanidagi 56-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Tajriba	Bosh.sinf	8	2	4	2
		Yuq.sinf	5	-	4	1
Jami	6	Bosh.sinf	7	2	4	1
		Yuq.sinf	5	-	5	-
Jami	6	Bosh.sinf	6	1	4	1
		Yuq.sinf	5	1	4	-
Jami	6	Bosh.sinf	6	2	3	1
		Yuq.sinf	5	-	5	-
Jami	6	Taj.guruh	38	5	24	9
		Naz.guruh	36	5	26	5

4-jadval

Tajriba oxirida

Talim muassasalari nomi	Guruhlar (tajriba-nazorat)	Sinflar	O'quvchilar soni	Darajalar		
				Yuqori	O'rta	Past
Samarqand shahar 1-son	Tajriba	Bosh.sinf	8	2	5	1
		Yuq.sinf	6	1	4	1
Pedagogika kolleji	Nazorat	Bosh.sinf	7	3	4	-
		Yuq.sinf	6	1	4	1
Samarqand shahar 1-son	Tajriba	Bosh.sinf	8	3	5	-
		Yuq.sinf	5	2	3	-
BMSM	Nazorat	Bosh.sinf	7	3	4	-
		Yuq.sinf	5	1	4	-
Tayloq tumanidagi	Tajriba	Bosh.sinf	6	2	3	1
		Yuq.sinf	5	2	3	-
56-umumiy o'rta ta'lim maktabi	Nazorat	Bosh.sinf	6	2	3	1
		Yuq.sinf	5	2	3	-
Jami	6	Taj.guruh	38	12	23	3
		Naz.guruh	36	12	18	2

Olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish jarayonida u yoki bu faraz (gipotiza)ni tekshirish uchun kuzatishlar yoki maxsus tajribalar o'tkazish yo'li bilan aniq ma'lumotlar olish lozim va ushbu farazga muvofiq nazariy-metodik _____ kutilayotgan ma'lumotlar bilan taqqoslash kerak. Agar olingan natijalar haqiqatga mos kelsa, u vaqtda bu dalil o'sha farazni

qabul qilish uchun yrtarli asos bo'lishi mumkin, aks holda olingan farqning to'g'riligi mavhum bo'lib qoladi.

Tadqiqotimizda to'plangan ma'lumotlarni nazariy-metodik jihatda kutilgan ma'lumotlarga mos kelishini baxolashda X^2 usulini tanladik.

Bizning tadqiqot ishimizda Styudentning X^2 uslini qo'llash _____ to'plam, ya'ni o'quv jarayoninig normal taqsimot qonuniga bo'ysunishi haqidagi farazni tekshirishni talab qiladi, ya'ni nolinch faraz o'rnida normal taqsimot qonuni olinadi.

Berilgan α -muhimlilik darajasi uchun yuqoridagi farazni tekshirish quydagicha amalga oshiriladi:

- Tanlanmaning o'rtacha qiymati \bar{X} va o'rtacha kvadratni xatosi δ lar hisoblanadi.
- Nazariy chastotalar hisoblanib, tajribaviy taqsimotni hisoblash jadvali tuziladi (X^2 tajriba);
- Muhimlilik darajasi α va ozodlik darajasi soni $R=S-3$ _____ nazariy jihatda kutilgan mashg'ulotlar jadvalidan X^2_{kr} (X,K) aniqlanadi. So'ngra ular taqqoslanib, agar $x^2_{\text{tampir}} < x^2_{kr}$ bo'lsa- bosh to'plamning normal taqsimoti to'g'risidagi farazni rad etishga asos yo'q, boshqacha aytganda, tajribaviy va nazariy chastotalar orasidagi farq sezilarsiz.

Agar $x^2_{\text{tampir}} < x^2_{kr}$ bo'lsa-faraz rad etiladi. U holda tajribaviy va nazariy chastotalar orasidagi farq sezilarli bo'ladi.

Tadqiqotimizning o'tkazilgan sinov natijalari quyidagicha umumlashtirildi:

Muhimlilik darajasi $\alpha=0,05$ uchun \bar{x}^2 usulidan foydalanib, $n=71\%$ (tajribasizov ishtirok etgan o'quvchilar soni) tajribaviy taqsimoti normal taqsimot qonuniga bo'ysunishi haqidagi farazni tekshiramiz:

$$x_1 \ 1,2,3$$

$$n_1- 25,70,97,78,80.$$

Bu yerda:

$$n=\sum n_1=25+70+97+78+80=350 \text{ (bizning o'quvchilar soni bo'lish kerak } 42+32)$$

$$X = \frac{\sum_{i=1}^5 n_i x_i}{\sum_{i=1}^5 n_i} = \frac{25 \cdot 1 + 70 \cdot 2 + 97 \cdot 3 + 78 \cdot 4 + 80 \cdot 5}{25 + 70 + 97 + 78 + 80} = \frac{24 + 140 + 291 + 312 + 400}{350} = \frac{1179}{350} = 3,365$$

Taqsimotning o'rtacha qiymati $X = \frac{\sum_{i=1}^5 n_i x_i}{\sum_{i=1}^5 n_i}$ ni o'rtacha kvadratik xatosi.

$$x_1=1,2,3$$

$$n_1-27,25,22$$

$$\text{Bu yerda: } n=\sum_{i=1}^3 n_i=27+25+22=74$$

$$X = \frac{\sum_{i=1}^3 n_i x_i}{\sum_{i=1}^3 n_i} = \frac{27 \cdot 1 + 25 \cdot 2 + 22 \cdot 3}{27 + 25 + 22} = \frac{27 + 50 + 66}{74} = \frac{143}{74} = 1,920$$

Taqsimotning o'rtacha qiymati $X = \frac{\sum_{i=1}^5 n_i x_i}{\sum_{i=1}^5 n_i}$ ni va o'rtacha kvadratik xatosi $\delta =$

$$\sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^5 n_i (x_i - \bar{x})^2} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^5 n_i x_i^2 - \bar{x}^2 \text{ larni hisoblaymiz, bu yerda:}$$

$$S=5 \cdot \delta = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^5 n_i x_i^2 - \bar{x}^2 = \frac{1}{74} (27 \cdot 1^2 + 25 \cdot 2^2 + 22 \cdot 3^2) - (1,920)^2 = \frac{27+100+88}{74} = \frac{215}{74} - 2,905 = 2,905 - 2,905 = 3,635 \text{ demak, } X=1,920; \delta =3,635.$$

Endi nazariy chastotalarni hisoblaymiz. Buning uchun quyidagi jadvalni yuzib olamiz.

I	x_1	$u_i = \frac{x_1 - x}{\delta}$	$\varphi(u_i)$	$n_1 = 204,32\varphi(u_i)$
1	1	-1,7889	0,1626	33,2
2	2	-0,0325	0,2989	61,07
3	3	-0,2761	0,3925	80,19

Endi Xtajriba $\sum \frac{(n_i n_i^1)^2}{n_i}$ miqdorni hisoblash jadvalini tuzamiz, bunda S-tanlanma guruhlar soni.

i	n_i	n_i^1	$n_i - n_i^1$	$(n_i - n_i^1)^2$	$\left(\frac{n_i - n_i^1}{n_i}\right)^2$
1	27	22,97	2,03	4,1209	0,1794
2	25	61,07	8,93	79,7449	1,3057
3	22	88,37	8,63	74,4769	0,8427
			74		

O'quvchilarni cholg'u ijrochilik qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari.

5-jadval

Tajriba-sinov o'tkazilishdan oldingi natijalar			Tajriba-sinov o'tkazilgandan keyingi natijalar		
Tajriba guruhlar uchun			Tajriba guruhlar uchun		
O'rtacha o'zlashtirish x_1 =1,72%	Yuqori va o'rta daraja 76,2%	Ballarning o'rtacha nisbatta tarqoqligi v_x =22,9%	O'rtacha o'zlashtirish x_1 =2,27%	Yuqori va o'rta daraja 92,1%	Ballarning o'rtacha nisbatta tarqoqligi v_x =14,3%

Nazorat guruhlari uchun			Nazorat guruhlari uchun		
O'rtacha o'zlashtirish $v_i=2,86\%$	Yuqori va o'rta daraja $86,1\%$	Ballarning o'rtacha nisbatta tarqoqligi $v_y=27,3\%$	O'rtacha o'zlashtirish $v_i=3,51\%$	Yuqori va o'rta daraja $83,3\%$	Ballarning o'rtacha nisbatta tarqoqligi $v_y=19,8\%$

Demak, $x^2_{tajr}=84,51$; hamda $x^2_{naz}=61,92$; endi tajribaviy taqsimotni nazariy taqsimot bilan taqqoslaymiz: $x^2_{tajr} > x^2_{naz}$ o'rinli. Bundan esa, tajribaviy va nazariy chastotalar orasidagi farq sezilarli ekanligi, ya'ni tadqiqotda qo'llanilgan metodikani yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlanadi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.

Shunday qilib pedagogik tajriba-sinov ishlaridan shu narsa aniqlandiki, biz tomonimizdan tavsiya etilgan metodika asosida ish tutish o'quvchilarni ijrochilik qobiliyatlarini, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda samaradorlikka ega bo'lib, bu quyidagilarda o'z isbotini topdi:

-tadqiqot jarayonida qo'llanilgan ish uslub,shakl, vositalari yuqori samaradorlikka ega;

-o'quvchilarda va o'qituvchilarda musiqa ijrochiligi jarayonini tashkil etishga sinfda va sinfdan tashqari faoliyatlar uyg'unligidatizimli ishlash ko'nikmalari shakllandi;

-ta'lim jarayonida cholg'u ijrochiligiga o'rgatish emas, ijrochilik qobiliyatlarini rivojlantirish, ustuvor maqsad ekanligini tushunish, his etish ustuvor ahamiyatga ega ekanligi dalillandi;

-o'quvchilarda dars va darsdan tashqari faoliyatda cholg'u ijrochiligi bo'yicha ijodiy va mustaqil ishlashga moyillik kuchaydi;

-o'quvchilarda musiqani shunchaki o'rganish emas, uni professional nuqtai-nazardan o'rganishga ehtiyoj va intilish hissiyotlari rivojlandi;

-ijrochilik sirlarini egallashda musiqiy qobilyatlarni muayyan darajada rivojlantirish ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyatlarini kengaytirish va o'quvchilarni o'z ijrosini baholash, unga tanqidiy yondoshish, solishtirish, tahlil qilish, hatto-kamchiliklarni bartaraf etishga tashabbuskorlik bilan yondoshish kabi hislatlari shakllandi.

Qo'llanilgan tadqiqot metodlari asosida tajriba-sinov ishlari amaliyotda sinab ko'rildi. Olingan natijalar uning samaradorligini isbotladi va shu asosda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar.

Mamlakatimizda ma'naviyat-ma'rifat shaxsning, jamiyatning, davlatning kuch-qudrati ekanligi, har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash, uni mamalakat istiqbolini yaratuvchisi etib kamolga yetkazish mustaqil jamiyat qurishning eng muhim tayanch vazifasi ekanligi Prezidentimiz I.A.Karimovning nutqlarida, qabul qilgan qarorlar, farmoishlar, ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan me'yoriy va dasturiy hujjatlarda har tomonlama asoslab berildi.

Bizga ma'lumki, jahon ilm-fani, uni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan olimlar, faylasuf-mutafakkirlar, pedagoglar o'z ilmiy va pedagogik qarashlarida barcha tabiiy, ijtimoiy, gumanitar fanlar, shuningdek, san'at sohalari qatorida musiqa san'ati va musiqa tarbiyasining insoniyat ma'naviyati, badiiy estetik kamolotidagi o'rni va ahamiyatiga yuksak baho berishgan va uni ilmiy asoslashga qaratilgan fikrlarni bayon etishgan, maxsus asarlar yozishgan. Chindanam, Prezidentimiz I.Karimov haqli ravishda ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda musiqani his etmay, undan estetik zavq olmay yashayotgan odamni, xususan bizning mamlakatimizda topish qiyin va ta'lim-tarbiya sohasida esa musiqa san'ati ayniqsa yoshlar tarbiyasida boshqa san'at turlariga nisbatan ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rdatib kelmoqda.

Shu bois ham respublikamizda musiqa san'atiga, undan yoshlar ta'lim-tarbiyasida keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Musiqa san'ati vositasida o'sib kelayotgan yoshlarni ma'naviy, estetik va axloqiy tarbiyalash, ularni musiqiy qobilyatlarini yuzaga chiqarish, rivojlantirish ushbu yo'nalishdagi ustuvor vazifalardan sanaladi.

Musiqa bilan jiddiy shug'ullanish, musiqiy iste'dodlarni shakllantirish hozirki kundagi musiqaga ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari pedagog-murabbiylari oldiga ham ko'plab mas'ulyatli vazifalarni qo'yadi. Bu o'rinda musiqa ta'limiga ixtisoslashtirilgan va umumta'lim maktablari, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ko'plab tashkil etilayotgan cholg'u ijrochiligi sinf (guruh)larida o'quvchilar ijrochiligiga tayyorlash birinchi navbatda ularda ijrochilik qobilyatlarini rivojlantirishni taqazo etishini alohida ta'يدlash o'rinlidir. Cholg'u ijrochiligining, xususan fortepiani cholg'usi yo'nalishidagi ta'lim-tarbiya ishlario'ziga xos, nisbatdan murakkab pedagogik jarayonni va metodik yondashuvlarni talab etadiki, mazkur tadqiqot mazmunida ushbu jarayonning o'ziga xis tashkiliy, uslubiy, amaliy ijrochilik bilan bog'liq jihatlari, uning samarali kechishiga xizmat qiluvchi ish, shakl, usullari ilmiy tadqiq etildi. Natijada- musiqachi-peagoglar, musiqa raxbarlari tomonidan maxsus o'rganilishi kerak bo'lgan musiqiy qobilyatlar, ta'lim jarayonida uni shakllantirish, rivojlantirish imkonini beruvchi pedagogik va psixologik omillar, ularning ilmiy asosli negizi fortepiano cholg'u ijrochiligi va shu bo'yicha jahon musiqa ijrochiligida to'plangan tajribalar, ilmiy tadqiqotlat natijalari hamda xulosalariga tayangan holda tahlil qilindi, ularning eng muhim deb topilganlari umumlashtirildi, tadqiqotning amaliy tajribalari jarayonida sinab ko'rildi va shaxsiy kuzatuvlar, amaliy tajribalar asosida boyitildi.

Tadqiqotni olib borish uchun tanlangan obyektlarda fortepiano cholg'usiga ixtisoslashtirilgan sinf (guruh)larda olib borilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarni cholg'u asbobida chalishga o'rgatish, musiqa asarlari ustida ishlash, shu jarayonda asosiy diqqatni o'quvchilarni musiqiy qobilyatlarini

rivojlantirishga qaratish hal qiluvchi omil ekanligi aniqlandi. Ijrochilikka tayyorlash butun bir musiqiy qobilyatlar majmuini uyg'un ravishda rivojlanishini taqazo etishi, busiz ta'lim jarayonida hech qanday muvaffaqiyatga erishib bo'lmasligi asoslandi, musiqiy qobilyatlarni shakllantirishning, rivojlantirib va takomillashtirib borishning pedagogik-psixologik shartlari, imkoniyatlari va o'ziga xos ish uslublaridan foydalanish yo'llari yoritib berildi.

Tadqiqot ishida fortepiano cholg'usi bo'yicha mashg'ulotlarning samaradorligi ko'p jihatdan pedagog-rahbar shaxsiga, uning kasbiy metodik jihatdan tayyorgarligi, mahorat va tajribasiga, ilg'or tajribalardan foydalana bilishi, kuzatish, aniqlash, xulosalash, umumlashtirish, o'quvchiga psixologik ta'sir qila bilishiga bog'liqligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Olib borilgan tadqiqiy izlanishlar va amaliy tajribalar quydagicha xulosaviy to'xtalishlarga kelish imkonini berdi:

-musiqiy ijrochili faoliyatini samaradorligi birinchi navbatda musiqiy qobilyatlarni rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

-cholg'u ijrochiligiga o'rgatishda ta'limning samaradorligi o'qituvchi-rahbarlarni kasbiy va metodik jihatdan tayyorgarlik darajadi bilan belgilanadi.

-o'quvchilarni musiqiy ijrochilik qobilyatlarini shakllantirish bu faoliyatga tizimli va maxsus ishlab chiqilgan metodikaga tayanib olib borilganda kutilgan samarani beradi.

-musiqiy eshituv, musiqiy idrok, tasavvur qilish, diqqatni jamlash, eslab qolish, tovushni his etish, boshdan kechirish, taqqoslash, baho berish, obrazli ijroga erishish musiqiy qobilyatlarning eng muhim elementlari bo'lib, har bir mashg'ulotda ular o'qituvchining diqqat e'tiborida bo'lishi lozim.

-musiqiy qobilyatlarni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy namunasi, ko'rsatmalari, o'quvchilar ijrolarini birgalikda tahlil qilish, mustaqil va ijodiy shu'g'ullanishga yo'naltirilgan topshiriqlar alohida kasb etadi.

-ta'lim jarayonini bosqich (davr)larga bo'lish va har bir bosqichda amalga oshiriladigan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar aniq reja asosida olib borilishi-musiqiy ijrochilik qobiliyatlarini rivojlanganlik me'zoni bo'lishi lozim.

-o'quvchilarni muayyan vaqt oralig'ida ijrochilik mahorati, bilim, malakalarini sinovdan o'tkazish, ularni o'z yutuqlarini ko'pchilik oldida namoish qilishlariga imkoniyat yaratish, konsert, ko'rik-tanlovlarga qatnashishlariga imkon berish lozim.

Quyidagi vazifalar va ularni amalga bajarishga yo'naltirilgan amaliy ishlar natijalari quyidagi tavsiyalarni ilgari surishga asos bo'ldi:

1. Umumta'lim maktablari, musiqa bo'yicha maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'quvchilarni cholg'u ijrochiligiga o'rgatishda ularni musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;
2. Cholg'u ijrochiligi mashg'ulotlarida o'quvchilarni musiqiy qobiliyatlarini shakllantirish bo'yicha maxsus metodik tizim bilan barcha muassasalarni ta'minlash, pedagog-rahbarlarni qayta tayyorgarlikda o'tkazish;
3. Pedagog-rahbarlarni o'zaro tajriba almashishlarini keng yo'lga qo'yish;
4. Musiqiy ijrochilik mahorati, asarlar ustida ishlash, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirishga oid "namunaviy darsalar" videotasvirlarini chiqarish va o'quv muassasalarini ta'minlash;
5. O'quvchilarni cholg'u ijrochilikka tayyorlashni sinf va sinfdan tashqari hamda maktabdan tashqari faoliyatlar, ta'lim muassasalarini, ijodiy jamoalar faoliyati bilan uyg'un ravishda yo'lga qo'yish;
6. O'quvchilar ishtirokida hisobot konsertlarini muntazam o'tkazib turish, ularni turli madaniy-ommaviy tadbirlar, ko'rik-tanlovlarga ishtirok etishlari uchun zarur choralarni ko'rish, shart-sharoit yaratish;

7. O'quvchilarni amaly ijrochilik sirlarini egallashlari bilan bir qatorda ularni musiqiy-nazariy bilimlarini muttasil oshirib borishlariga erishish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –Toshkent.O'zbekiston, 1999 yil.
2. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. –Toshkent, Manaviyat, 2008 yil.
3. I.Karimov. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari.- Toshkent, O'zbekiston, 2000 yil.
4. I.Karimov. O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodining istiqbolining asosiy tamoyillari.-Toshkent, O'zbekiston, 1995 yil.
5. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Xavfzizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari. -Toshkent, O'zbekiston, 1997 yil.
6. I.Karimov. Zamonaviy kadrlar tayyorlash islohatlar muvaffaqiyatining asosi. Ma'rifat gazetasi, 1998 yil, 25 yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. 1998 yil, 1-aprel.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonda musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora –tadbirlari to'g'risida”gi farmoni.// O'zbekiston ovozi. 1993 yil 21-oktabr.
9. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.- Toshkent, 1997 yil.

10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri..-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1993 yil.
11. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. T.: O’qituvchi, 1992 yil.
12. Badiiy asarlar vositasida estetik tarbiya berish. To’plam. Tuzuvchi Axmedov B.- T.: O’qituvchi, 1978 yil.
13. Yuldasheva S.X. Rozvitiya muzikalkhonal noospitaniya i obrazovaniya v Uzbekistane.- T.: O’qituvchi, 1989 yil.
14. Jo’rayev F. Stanovlenie i rozvitiemassavogo muzikalkhonal-esteticheskogo noospitaniya uchashchaya molodezhi v kruzhkax uzbekskikh narodnykh instrumentov. Avtoreferatdiss.k.p.n. T.:1979 g.
15. Джамалова Д. Мuzikalkhonal-poeticheskoe traditsii Vostoka v povyshenie effektivnosti muzikalkhonal noospitaniya uchashchaya (na materiale vneklassnoy raboty uchashchaya 8-9 klassov sredney obshchobrazovatelnoy shkoly). Avtoreferat diss.k.p.n. Tashkentb 2003.
16. Эммануель Э.Э. Эстетическое воспитание учащихся детских музыкальных школ средствами музыки (на материале ДМШ Узбекистана). Автoreферат diss.k.p.n. T.:1991 г.
17. D.Rajabova. Fortepiano mashg’ulotlari.-Toshkent .: O’qituvchi, 1994 yil.
18. Апраксина О. Методика музыкального воспитания в школе.-М.: Просвещения, 1998 г.
19. Musiqa psixologiyasi. O’quv qo’llanma. Tuzuvchi muallif R.Qodirov. T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2005 yil.
20. Soipova D. Musiqiy nazariy bilimlarni o’zlashtirish jarayonini takomillashtirish. T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2005 yil.

21. Soipova D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.:Fan va texnologiyalar nashriyoti,2009 yil.
- 22.П.Халабузар и другие. Методика музыкального воспитания.-М.: Музыка, 1996 г.
23. Хрестоматия по методике музыкального воспитания. Составитель О.А.Апраксина-М.:Просвещения , 1974 г.
24. Теплов Б.М. Психология музыкальных способностей. - М.:Просвещения, 1974 г.
25. Музыка в начальной школе. Методическое пособие. Под.редД.Б.Кабалевского-М.:Просвещения , 1980 г.
26. Эстетик тарбиясослари. НьюКушаевтахририостида. –Тошкент, Укитувчи, 1993 йил.
- 27.Е.Эфруз. Развитие пианиста.-М.: Искусства,1995 г.
- 28.А.П.Шаков. Первоначально е Обучение игре на фортепиано.-М.: Искусства,1968 г
- 29.Г.Нейгауз. Об искусстве фортепианной игре.-М.: Искусства, 1959
- 30.Нажмиддинов Г.М. Формирование профессионального интереса у студентов музыкально-педагогических факультетов ВУЗов Республики Узбекистан. Автореферат дисс.к.п.н. Ташкент,1999 г.
31. Халилов Ф.Н. Активизация процесса музыкально-эстетического воспитания учащейся молодежи средствами игры на баяне. . Автореферат дисс.к.п.н. Ташкент,1991 г.
- 32.Равшанов А.У.
Чолгуасбобларимашгулотларидаукувчиларниижрочиликкуникма
вамалакаларинишакиллантириш. (Кашкаррубобимисолида).
Магистрликдиссертацияси. СамДУ, 2014 й.
- 33.Рубенштейн С.Л. Проблемы общей психологии. - М.:Просвещения , 1973 г.

34. А.Фитрат. Узбек классик мусикасываунын тарихи. –Т.: Фан, 1993 й
35. М.Зильберквит. Рождения фортепиано.-М.: П.Юргенсон, Москва, 2010 г
36. Z. Muhammadjanova. Fortepiano ansambilini o'qitish uslubiyoti. (BMSM uchun o'quv qo'llanma). Muharrir, Toshkent, 2012 yil
37. K.Zoirov. Umumiy fortepiano. (O'quv qo'llanma). Musiqa, Toshkent, 2004 yil
38. А.Готлиб. Основы ансамблевой техники. – М.: 1971 г
39. Музыкальное исполнительство в Узбекистанею.-Т.:1985 г
40. Альспектор.И. Воспитание пианиста-исполнителя в классе. Т.А.Попович. –Т.: 1986 г
41. Musiqa ijrochiligi va pedagogikasi masalalari.-Т.: 2013
42. Н.Азимов. Fortepiano darsligi. O'qituvchi.- Т.: 1998 yil
43. Z. Muhammadjanova. Fortepiano chalishni o'rgatish uslubiyoti.- Toshkent, 2006 yil
- 44.